

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**IJTIMOIV FANLAR KAFEDRASI**

**SOSIOLOGIYA  
fanidan**

**O'QUV USLUBIV MAJMUA**

**Namangan-2016**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ro'yhatga olindi:

№ \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 y.

“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlar bo'yicha prorektor

\_\_\_\_\_ dots.SH.Kenjaboyev

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 y.

**“IJTIMOIY FANLAR” KAFEDRASI**

**SOSIOLOGIYA**  
fanidan

**O'QUV USLUBIY MAJMUA**

## MUNDARIJA

1.	O'quv dasturi	
2.	Ishchi o'quv dasturi	
3.	Ta'lim texnologiyasi (ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning texnologik model kartalari)	
4.	Prezentasiya (elektron)	
5.	Tayanch konspekt	
6.	Tajriba, amaliy va seminar mashg'ulotlari mazmuni	
7.	Test savollari	
8.	Nazorat uchun savollar (JN,ON,YaN)	
9.	Baholash mezonlari	
10.	Tarqatma materiallari	
11.	Glossari	
12.	Mustaqil ta'lim topshiriqlari	
13.	Adabiyotlar ro'yhati	
14.	Xorijiy manbalar	
15.	Annotasiya	
16.	Foydali maslahatlar	
17.	Meyoriy hujjatlar	
18.	Muallif haqida ma'lumot	

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

«Ruyxatga olindi»  
№ -BD- 1.07  
8.11.2011 yil

Mazkur namunaviy dastur Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3-son majlis bayoni bilan tajribaviy dastur sifatida ma'qullangan.

**SOTSILOGIYA**  
**FANIDAN NAMUNAVIY**  
**DASTUR**  
(bakalavr yo'nalishi uchun)

Toshkent – 2011

Mazkur namunaviy dastur Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3-son majlis bayoni bilan tajribaviy dastur sifatida ma'qullangan.

Ushbu dastur "Sotsiologiya" fanidan bakalavrning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlari mazmuniga qo'yiladigan talablar asotsida tayyorlangan.

Tajribaviy dasturni kelgusida to'ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruratini hisobga olib, fikr-mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz:

**Toshkent shahar, 2-Chimboy ko'chasi 96-uy, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "Ma'naviy-axloqiy tarbiya" boshqarmasi, tel: 246-10-58, 246-10-54.**

Fanning o'quv dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Ganieva M.H. – sotsiologiya fanlari doktori (O'zMU).

Aliqoriev N.S. – iqtisod fanlari doktori, professori (O'zMU).

Farfiev B.A. – sotsiologiya fanlari nomzodi, dosent (O'zMU).

Hodjaev S.D. – katta o'qituvchi (O'zMU)

**Taqrizchilar:**

Yunusov A.B. – sotsiologiya fanlari nomzodi, dosent (ToshMadI)

Ota-Mirzaev O.B. – geografiya fanlari doktori, professor

("Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi)

Fanning o'quv dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan (2011 yil

19 avgustdagi 1-son bayonnoma)

## KIRISH

Sotsiologiya gumanitar fanlar doirasidagi shunday yo'nalishki, u butun jamiyat va uning ijtimoiy tizimini tashkil etadigan tarkibiy qismlarining rivojlanish va mavjud bo'lish qonuniyatlarini, turli sotsial jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va kishilarning sotsial xulq-atvori qonuniyatlarini o'rganadi. Sotsiologiya fani jamiyatda ro'y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki uning asl mohiyati va mazmunini atroflicha ochib beradi. Bu fan o'zining ilmiy xulosalarini empirik darajada asoslangan holatda ilgari suradi.

Sotsiologiya fan sifatida hozirgi ijtimoiy jarayonlar holatiga to'laqonli javob berish bilangina cheklanmasdan, balki ularning istiqboldagi o'zgarish darajasi hususida bashorat qiladi. Ana shu jihatdan sotsiologiya fani nazariyasi, amaliyoti va tadqiqot usullarini atroflicha o'rganib chiqish zarurati tug'iladi. Fanning asosiy mohiyati sotsiologiya rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari, fanning predmeti va ob'ekti, institutlashgan shakllari, ijtimoiy fikrning tarixiy rivojlanishi, fanlar tizimida sotsiologiyani o'rni, sotsiologiyani tushunishdagi ilmiy nazariyalar, uning tushunchalar tizimini ko'rib chiqishda namoyon bo'ladi. Fanning nazariy asoslari dolzarb ijtimoiy jarayonlar, sotsial struktura va sotsial tizimlarning mavjud bo'lishi va rivojlanish muammolari, jamiyat sotsial-madaniy tizim sifatida, shaxs ijtimoiy munosabatlarning ob'ekti va sub'ekti sifatida, sotsial munosabatlar, ijtimoiy jamoalar, sotsial aloqalar, sotsial tashkilotlar, guruhlar, sotsial institutlar va institutlashgan munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni batafsil bayon qilish bilan mos keladi. Bunda asosiy e'tibor amaliy faoliyatda sotsiologik bilim va usullardan foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqishga, O'zbekiston va jahondagi sotsial muammolarga nisbatan qiziqishning oshganligiga qaratiladi.

Ushbu dastur sotsiologiya fani qo'lga kiritgan va munozarali sotsiologik masalalar yuzasidan keyingi yillarda monografiya, dissertasiya, ilmiy maqolalar, darslik va o'quv qo'llanmalarda bildirilayotgan fikrlar, O'zbekistonda sotsiologiya ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida qilinayotgan harakatlar hamda bir necha yillardan buyon bu fanni oily ta'lim tizimida o'qitish tajribasini hisobga olgan holda tuzildi.

Dasturda sotsiologiyani fan sifatida shakllanishi, uning tarkibiy tuzilishi, jamiyatni yaxlit tizim tariqasida tahlil qilish, ijtimoiy hayotda sotsial institutlar roli, deviant xulq-atvor va sotsial nazorat masalalari, jamiyatning sotsial strukturasi va stratifikasion jarayonlar, sotsial munosabatlar, ijtimoiy taraqqiyot tendensiyalarini ifodalaydigan mavzular yoritilgan.

Dasturning yakunlovchi qismida empirik sotsiologik tadqiqotlarni olib borishga bag'ishlangan mavzu tavsiya qilingan. Bunda empirik sotsiologiyada keng o'rin olgan sotsiologik ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash hamda tahlil qilish uslublariga ham yetarlicha e'tibor qaratildi.

## O'quv fanining maqsadi va vazifalari

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda sotsiologiya fani mazmuni va mohiyati, sotsiologiya mutaxassisligining jamiyatdagi o'rnini, xususiyatlari va kelajagi to'g'risida tasavvurlarni paydo qilish, ijtimoiy hayot muammolariyechimiga mos keladigan taklif va tavsiyalar mexanizmini ishlab chiqishda mazkur fanning roli haqida bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

**Fanning vazifalari** – talabalarga jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy muammolarni sotsiologik nuqtai nazardan tushuntirish hamda fanning dolzarb masalalarini yechishning uslub va uslubiyotlarini, sotsiologik tahlil va tavsiyanomalar yaratishni o'rgatish.

### Fan bo'yicha talabalarning bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar

«Sotsiologiya» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalgam oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

– jamiyatni yaxlit ijtimoiy tizimligi, shaxs va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy hodisalar va muammolarga sotsiologik yondashish, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillari, ijtimoiy hayot faoliyatini muvofiqlashtiradigan sotsial institutlar faoliyatini tahlil qilishni

#### ***bilishi kerak.***

- talaba sotsiologiya fanini mustaqil ijtimoiy fan sifatida shakllanishining tarixiy-siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-falsafiy asoslarini; sotsiologiya fani ob'ekti va predmeti, uning strukturasi va fanlar tizimidagi o'rnini; Sharq va G'arb mutafakkirlarining sotsiologik ta'limotlari mazmunini; ijtimoiy taraqqiyot va uning asosiy shakllarini;
- ijtimoiy hayotda milliy g'oya va mafkuraning sotsiologik ahamiyatini; shaxs

ijtimoiylashuvi omillarini; jamiyatning sotsial strukturasi va uning o'zgarib borish xususiyatlarini; ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ma'lum bir qonuniyatlar asosida kechishini; jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'zaro bog'liqlikda ekanligini yaxlit idrok etishni; jamiyat rivojining asosiy omillarini tasniflay olish

#### ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

- talaba zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalarni to'g'ri tavsiflay olishi; turli ijtimoiy-madaniy xususiyatda kechayotgan hodisalarni xolis qiyosiy taqqoslay olish; zamonaviy jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolardan ustuvorlarini aniqlash va ularni ob'ektiv tahlil qila olishi; muayyan hodisa va voqealarga kishilarning shaxsiy munosabatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarda ishtirok etishi;
- ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarida o'tkazilgan amaliy sotsiologik

tadqiqotlar natijalaridan foydalana olish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

## **Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

Sotsiologiya fani ijtimoiy hayot muammolari va ijtimoiy taraqqiyot jarayonining turli omillarini kompleks tarzda o'rganuvchi fan hisoblanib, u tarix, huquqshunoslik, falsafa, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, psixologiya, siyosatshunoslik, etnografiya, iqtisod nazariyasi, matematika, statistika kabi fanlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi.

## **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

Sotsiologiya mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'z metodologiyasi va nazariyasiga egadir. Sotsiologiya fani jamiyat hayotidagi ijtimoiy muammolarni o'zining empirik bazasiga ega bo'lgan konkret amaliy tadqiqotlari bilan kompleks tarzda tadqiq etadi. Jumladan, ijtimoiy mehnat va uning samaradorligini oshirish, marketing tadqiqotlarini faol olib boradi.

## **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning sotsiologiya fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar fanning mavzulariga mos ravishda ilg'or pedagogic texnologiyalari asotsida olib boriladi.

# **ASOSIY QISM**

## **Sotsiologiya fan sifatida**

Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar. O.Kont - pozitiv sotsiologiyaning asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejalari. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Haldun va boshqalar) zamonaviy sotsiologiyaning muhim manbalari sifatida. G'arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammosi. Sotsiologiyaning turli yo'nalishlarida fanning ob'ekti va predmeti muammosini yechish yo'lidagi g'oyaviy-nazariy izlanishlar. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan munosabati. Sotsiologiya va falsafa. Sotsiologiya va tarix. Sotsiologiya va psixologiya, demografiya, genetika, sotsial geografiya. Sotsiologiya va tabiiy hamda aniq fanlar. Sotsiologiyaning fanlar tizimidagi tutgan o'ziga xos o'rni.

## **Sotsiologiya strukturasi**

Fanda struktura tushunchasi va uning ahamiyati. Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari. Sotsiologiya strukturasi elementlarining rivojlanish dinamikasi. Fundamental (asosiy) sotsiologiya. Jamiyat hayotining fundamental muammolarini sotsiologik tahlili. Nazariy va amaliy sotsiologiya: ularning umumiyliigi va farqi. Sotsiologiya tarixida universal nazariyalarni ishlab chiqishga bo'lgan intilishlar. Empirik sotsiologiyaning bunyod bo'lishi va uni sotsiologiya nazariyasi rivojiga ta'siri. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar. Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya.



## **Jamiyat yaxlit sifatida**

Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi. Sharq mutafakkirlarining jamiyat to'g'risidagi qarashlari. G'arb sotsiologiyasi asoschilarining ishlarida ijtimoiylikning ta'riflanishi. M. Veber konsepsiyasida totalitar jamiyat, uning belgilari va ijtimoiy-siyosiy tashkil etilish usullari. Jamiyat va davlat. Jamiyatning mexanistik, organistik va boshqa tarzlarda ta'riflanishi. T.Parsons nazariyasida jamiyat tushunchasi, uning to'rt funksiyali paradigmasi. Zamonaviy jamiyatning turlicha ta'riflari. An'anaviy jamiyat va Industrial jamiyat. Ularning belgilari. "Mo'l- ko'llik jamiyati", "Ochiq jamiyat", "Yopiq jamiyat", "Iste'mol jamiyati", "Postindustrial jamiyat" va boshqalar XX va XXI asr madaniy-tarixiy va siyosiy tizimlarni ta'riflash mezonlari sifatida.

## **Sotsial guruhlar va sotsial institutlar**

Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari. Sotsiologiyada sotsial guruhlariga ajratish mezonlarining xilma-xilligi Sotsial guruh turlari: katta va kichik, rasmiy va norasmiy, birlamchi va ikkilamchi, inguruh va autguruh, referent guruhlar va boshqalar. G'arb sotsiologiyasida kichik guruhlar nazariyasi: sotsiometriya, guruh o'zgaruvchanligi, psixoterapevtik va boshqalar sotsial guruhlarining shakllanishi, ishlashi va taraqqiy etishi qonunlarini tushuntiruvchi nazariyalar sifatida. Kvaziguruhlar. Qon-qarindoshlikka asoslangan guruhlar: urug', qabila, qarindoshlar, oila, elat, millat. Ommani sotsiologik o'rganish. Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi. Sotsial institute belgilari. Sotsial institutning asosiy vazifalari. Sotsial institute turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, ta'lim, huquq va boshqalar. Jamiyat hayotida sotsial institutlarning o'rni. Oila va nikoh. Iqtisodiy institutlar. Ularning ko'rinishlari va vazifalari. Iqtisodiy guruhlar va iqtisodiy xatti-harakat. Ishlab chiqarish, uning tarixiy shakllari va vazifalari. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va kasb. Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik. Davlat va jamiyatning siyosiy tizimi. O'zbekiston sharoitida demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish. O'zbekistonda huquqiy ongning o'ziga xosligi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish. Din sotsiomadaniy institut sifatida. Dinning funksiyalari. Zamonaviy jamiyatda dinning o'rni. Din bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabat. Ta'lim sotsial institut sifatida. Uning taraqqiyoti vashakllari. Umumiy, o'rta-maxsus va oliy ta'lim. Oliy ta'lim va fan:tarkibi va ilmiy-pedagogik kadrlar. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi va Yevropa hamda AQSh universitetlari: umumiylik va xususiylik. Ta'lim tizimidagi islohotlar.

## **Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor**

Shaxs tushunchasi. Shaxs tushunchasini turli fanlardagi talqini. Shaxs, inson, individ tushunchalari. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Shaxs ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida. Shaxs to'g'risidagi asosiy sotsiologik nazariyalar. O'z-o'zini baholash va Men- a'limotining shakllanishi, qadriyatlar va baholar. Shaxsning o'z-o'zini hurmat qilishi. Shaxs strukturasi. Shaxs turlari. Shaxsning an'anaviy va zamonaviy turlari. Deviant xulq-atvor (og'ma xulq-atvor) tushunchasi. Deviant xulq-atvor muammosini o'rganish sotsiologiyadagi ilmiy yo'nalish sifatida.

Deviant xulq-atvor turlari: qonunni buzish, o'z-o'zini o'ldirish, giyohvandlik, alkogolizm va boshqalar. E.Dyurkgeym, R.Mertonlarning deviant xulq-atvor nazariyalari, Z.Freyd va E.Frommlarning destruktivlik (strukturani buzilishi) nazariyalari. Sotsial me'yor va anomiya deviant xulq-atvor nazariyasining markaziy tushunchasi sifatida. Deviant xulq-atvor belgilari, ularning strukturasi. Deviant xulq-atvorni turkumlash. Buzilgan xulq-atvor mexanizmi. Deviant xulq-atvorning tibbiy-biologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy tomonlari. Hozirgi zamonda deviant xulq-atvorning tarqalishi va o'zgarishi. Deviant, delinkvent va kriminal hatti-harakatlar. Professional jinoyatchilik. Uyushgan jinoyatchilik. Dunyoda jinoyatchilik holati. Jinoyatchilikni oshishi va jamiyatning kriminallasuvi sabablari va namoyon bo'lish shakllari. O'smirlar va yoshlar jinoyatchiligi. Jamiyatda korrupsiya muammosi. Sotsial nazorat. Sotsial nazorat kishilar hatti-harakatini tartibga solish mexanizmi sifatida. P.Bergerning sotsial nazorat to'g'risidagi ta'limoti. Sotsial nazorat elementlari: me'yorlar va sanksiyalar. Sotsial sanksiyalar turlari: pozitiv va negativ, rasmiy va norasmiy. Sotsial me'yorlar tasnifi. Sotsial me'yor turlari: huquqiy, diniy, an'anaviy va axloqiy. Ichki va tashqi nazorat. O'z-o'zini nazorat qilish muammosi. Jamoatchilik fikri sotsial nazoratning shakli sifatida.

### **Jamiyat sotsial strukturasi va stratifikasion jarayonlar**

Sotsial struktura tushunchasi. Kishilik jamiyati tarixida sotsial struktura muammosining talqini. Sotsial struktura to'g'risidagi antik davr mutafakkirlarining ta'limotlari. P. Sorokinning sotsial stratifikasiya to'g'risidagi nazariyasi. Stratifikasiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holat, mavqe, ta'lim va hokimiyat. Stratifikasiya va sotsial differensiya. Stratifikasion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar. Sotsial stratifikasiya va sotsial harakatchanlik (mobillik) nazariyasi sinfiylik ta'limotiga qarshi g'oya sifatida. Jamiyat sotsial strukturasi rivojining zamonaviy tendensiyalari. Bozor munosabatlari sharoitida sotsial strukturaning o'zgarishi. O'zbekistonda sotsial stratifikasiya va sotsial mobillik jarayoni. Sotsial harakatchanlik (mobillik) to'g'risidagi sotsiologiya klassiklari: M.Veber, E. Giddens, T. Parsons, P. Sorokin va boshqalarning qarashlari.

Sotsial harakatchanlik belgilari. Sotsial harakatchanlik turlari: gorizont va vertikal sotsial harakatchanlik. Guruhiy va individual harakatchanlik. Avlod ichidagi va avlodlar o'rtasidagi sotsial harakatchanlik. Strukturaviy sotsial harakatchanlik. Jamiyatda sotsial harakatchanlik yo'llari. Sotsial harakatchanlikning demografik omillari. Migrasiya va uning tarixiy shakllari. Emigrasiya va migrasiya. Mehnat va iqtisodiy migrasiya. Xorijiy ishchi kuchlar bozori. "Aqlar oqimi".

### **Sotsial munosabatlar**

Sotsial munosabatlar tushunchasi. Sotsial munosabat turlari: amfikrlik, kooperasiya, konfliktlar, kurash, begonalashuv, befarqlik, rizis, kamsitish, notenglik. Sotsial munosabatlar tizimidagi plyuralizm. sotsial munosabatlarning asoslari. Hamfikrlik, barqarorlik va kooperasiya - sotsial tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashining omillari sifatida. E.Dyurkgeym konsepsiyasida hamfikrlik tushunchasi. Kooperasiya

ijtimoiylikning asosiy belgisi sifatida. Pozitivizm sotsiologiyasida barqarorlik va inqiroz ongi. Barqarorlikni strukturaviy-funksional asoslash. Begonalashuv va tanazzul. E.Dyurkgeymning anomiya (qonunsizlik) konsepsiyasi, F.Tennis, M.Veber, G.Zimmel, ekszenstensial va fenomenologik sotsiologiya asoschilari ta'limotlarida begonalashuv va jamiyatdagi inqiroz hodisalarining o'zaro aloqadorligi to'g'risidagi fikrlari. Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlarini. Tenglik va plyuralizm ijtimoiy tuzum tamoyillari sifatida. Milliy g'oya va milliy mafkuraning sotsial munosabatlar tizimidagi o'rni.

### **Ijtimoiy taraqqiyot sotsiologiyasi**

Sotsiologiyada ijtimoiy taraqqiyot tushunchasi. Ijtimoiy o'zgarish va taraqqiyot tushunchalarining nisbati. Ijtimoiy progress, regress, evolyusiya va revolyusiya ijtimoiy o'zgarishlarning shakli sifatida. Ijtimoiy progress muammolari. Ijtimoiy taraqqiyot shakllari: evolyusion, revolyusion va reformistik taraqqiyotlar. Evolyusion rivojlanish va uning afzalliklari. Sotsial revolyusiyalar va ularning salbiy oqibatlarini. Sotsial reformalar va ularning turlari. O'zbek rivojlanish modelida milliy mentalitetning o'rni. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida milliy tafakkur tarzining ahamiyati. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvni demokratiyalashtirish jarayonlarining o'ziga xosligi. Ijtimoiy taraqqiyotni boshqarish. Menejment va uning xususiyatlari. Global ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullar va ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga salbiy ta'siri. O'zbekiston ijtimoiy-madaniy xususiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullarga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishdagi ahamiyati.

### **Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari**

Sotsiologik tadqiqot dasturi. Dasturning strukturasi: nazariy - metodologik va metodik bo'limlar. Dasturning asosiy elementlari: muammoni ta'riflash; tadqiqotning maqsad va vazifalarini, ob'ektni va predmetini aniqlash; ob'ektni tizimli tahlil qilish, tushunchalarni nazariy va empirik izohlash, gipotezalarni ifodalash; ma'lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish. Sotsiologiyada ma'lumotlar to'plash metodlarining umumiy tasnifi: so'rov, kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish metodlari, ularning o'ziga xosligi.

So'rov metodi. So'rov turlari. Anketa (so'rov varaqasi) so'rov metodining markaziy elementi sifatida. Anketa tuzish texnikasi. Anketaning umumiy tuzilishi. Anketadagi savollarning turlari, asosiy talablar. Og'zaki so'rov va uning xususiyatlari. Intervyu olish uslubi. Kuzatish metodi va uning mohiyati. Kuzatish turlari. Kuzatishning aniqligi muammosi va uni ta'minlash usullari. Kuzatish davrlari va tartibi. Kuzatish asboblari, kuzatish natijalarini qayd etish usullari. Hujjatlarni o'rganish metodi. Sotsiologiyada hujjat tushunchasi, uning turlari. Hujjatlarning informatsiya manbai sifatidagi ishonchlilik muammosi. Hujjatlarni tahlil qilish turlari. Kontent-tahlil hujjatlarni o'rganish metodining bir turi sifatida.

Eksperiment metodi. Eksperiment turlari. Ijtimoiy eksperiment strukturasi, uning bilish imkoniyatlari. Ob'ektni tanlash, eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, eksperimental vaziyat, natijalarni tahlil qilish. Xulosalarni tahlil qilish usullari.

### **Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor- o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda darslik va uslubiy qo'llanmalar asosida bilimlarni mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali o'quv vositalarni tayyorlash tavsiya etiladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar o'tilgan mavzular bo'yicha o'zlaridagi bilim, ko'nikmalari hamda malakalarini amaliy jihatdan mustahkamlab boradilar.

### **Seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etilayotgan mavzular:**

1. Sotsiologiya fan sifatida.
2. Sotsiologiya strukturasi.
3. Jamiyat yaxlit tizim sifatida.
4. Sotsial guruhlar va sotsial institutlar.
5. Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor.
6. Jamiyatning sotsial strukturasi va stratifikasion jarayonlar.
7. Sotsial munosabatlar.
8. Ijtimoiy taraqqiyot: nazariya va amaliyot.
9. Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari.

### **Mustaqil ta'limni tashkil etish shakli va mazmuni**

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- fanga oid statistik ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv

mashg'ulotlari;

□ masofaviy (distansion) ta'lim.

«Sotsiologiya» fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, ma'ruza, ma'ruza tayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish va boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzularini to'ldirishga harakat qilinishi lozim.

### **Mustaqil ish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Sosiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanish bosqichlari.
2. Sharq mutafakkirlarining (Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn-Sino, va boshqalar) ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
3. Sosiologiyaning fan sifatida shakllanishida mumtoz olimlar ta'limoti (O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym, M.Veber).
4. Hozirgi zamon sosiologiyasidagi asosiy yo'nalishlar.
5. Sobiq Sovet Ittifoqi jamiyatida sosiologiyaga bo'lgan munosabat va uning oqibatlari.
6. Sosiologiyaning ijtimoiy–gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'liqligi
7. Jamiyat va uning asosiy shakllari.
8. O'zbekistonda jamiyat hayotini erkinlashtirish.
9. Sotsial guruhlar va ularning jamiyat hayotida o'rni.
10. Sotsial guruh turlari.
11. Sosiologiyada sotsial institut tushunchasi.
12. Sotsial institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, ta'lim, huquq.
13. Din sotsiomadaniy institut sifatida.
14. Zamonaviy jamiyatda din va davlatning o'zaro munosabati.
15. Oila ijtimoiy institut sifatida.
16. Jamoatchilik fikri sosiologiyasi va uning asosiy yo'nalishlari.
17. Shaxs sotsial munosabatlar mahsuli sifatida.
18. Shaxs sotsializatsiyasi (ijtimoiylashuvi) va bosqichlari.
19. Shaxs to'g'risidagi sosiologik nazariyalar.
20. Deviant xulq-atvor (og'ma xulq-atvor) muammosini o'rganish sosiologiyadagi ilmiy yo'nalish sifatida.
21. Deviant xulq-atvor turlari.
22. E.Dyurkgeym, R.Mertonlarning deviant xulq-atvor to'g'risidagi nazariyalari,
23. Deviant, delinkvent va kriminal xatti-harakatlar.
24. Jamoatchilik fikri sotsial nazoratning shakli sifatida.
25. Sotsial nazorat kishilar hatti-harakatini tartibga solish mexanizmi sifatida.
26. Sotsial nazorat elementlari: me'yorlar va sanksiyalar.
27. P.A. Sorokinning sotsial stratifikatsiya to'g'risidagi nazariyasi.
28. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holat, mavqe, ta'lim va hokimiyat.

29. Stratifikasion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar.
30. “O’rta sinf”ning jamiyat hayotidagi o’rni.
31. Zamonaviy O’zbekistonda sotsial stratifikasiya va sotsial mobillik masalalari tahlili.
32. Sotsial harakatchanlik (mobillik) tushunchasi va uning mohiyati.
33. Sotsial harakatchanlik (mobillik) to’g’risidagi sotsiologiya klassiklari: M.Veber, E.Giddens, T.Parsons, P.Sorokin va boshqalarning qarashlari.
34. P.Sorokinning ijtimoiy stratifikasiya konsepsiyasi.
35. M.Veber sinflar, statuslar, partiyalar xaqida.
36. Sotsial munosabatlar tushunchasi, strukturasi, mohiyati.
37. Barqarorlikni strukturaviy-funksional asoslash.
38. Begonalashuv va tanazzul.
39. Ijtimoiy progress, regress, evolyusiya va revolyusiya ijtimoiy o’zgarishlarning shakli sifatida.
40. Ijtimoiy progress muammolari.
41. Ijtimoiy taraqqiyot shakllari: evolyusion, revolyusion va reformistik taraqqiyotlar.
42. Empirik sotsiologik tadqiqotlar.
43. Sotsiologik tadqiqot dasturi.
44. Sotsiologiyada ma’lumotlarni to’plash metodlari.
45. So’rov metodi va uning turlari.
46. Kuzatish metodi va uning mohiyati.
47. Hujjatlarni o’rganish metodi.
48. Eksperiment metodi.
49. Sotsiologik ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil etish usullari.
50. O’zbekistonda empirik sotsiologik tadqiqotlarning istiqbollari.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati**

#### **Raxbariy adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2011.
2. Karimov I.A. Asarlar. 1-18 jild. – Toshkent: O’zbekiston, 1996-2010.
2. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. –Toshkent: O’zbekiston, 2009.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2010.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma

majlisidagi ma'ruza (2010 yil 27 yanvar) / Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent:

### **Darslik va o'quv qo'llanmalar:**

1. Aliev B., Rafiqov G'., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O'quv qo'llanma). –Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2006.
2. Sotsiologiya //O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
3. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. Aliqoriev N.S, Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B., va boshq. – Toshkent, 2001
4. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriev N.S va Ubaydullaeva R.T tahriri ostida) – Toshkent: 1999.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.
2. Veber M. Izbrannie proizvedeniya. – M.: Progress, 1990.
3. Ganieva M.X. Etnosotsiologiya. Uchebnoe posobie dlya stud. visshix uchebnix zavedeniy. – Tashkent: Universitet, 2006.
4. Ganieva M.X. Vvedenie v sotsialnuyu rabotu. –Tashkent., 2011. 98 s.
5. Garadja. V.I. Sotsiologiya religii. – M., 2005.
6. Giddings E. Sotsiologiya. – Toshkent, 2002
7. Kravchenko A.I. Sotsiologiya. – M., 2006.
8. Latipova N.M. Politicheskaya sotsiologiya. Metodicheskoe posobie. – Tashkent., 2010.
- 14
9. Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya. Slovar. – M.: Progress, 1990.
10. Sotsiologiya religii. V.I.Garadja. – M., 2005.
11. Sotsiologiya //Uchebnoe posobie. Pod redak. d.f.n. Muxamedovoy Z.M., – Tashkent: Sanat, 2010
12. Qodirov A.Q. Sotsiologiya. –Toshkent, 2006.
13. Saitxodjayiv H.B. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. –Toshkent: Akademiya, 2008.
14. Holbekov A.J., Idivov U.Yu. Sotsiologiya: izohli lug'at-ma'lumotnoma. –Toshkent: Ibn-Sino nomidagi nashriyot, 1999.
15. Xolbekov. A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi (o'quv qo'llanma). –Toshkent: Akademiya, 2007.
16. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O'quv-uslubiy qo'llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr», 2001.
17. Farfiyev B.A., Nurullaeva U.N. Sotsiologiya tarixi. (Uslubiy qo'llanma). Toshkent: Universitet, 2009.
18. Bekmuradov M.B. Rol obshchestvennogo mneniya v sotsialno-

- kulturnom razvitiy obshchestva: Dis....dok.sotsiol.nauk. – Tashkent, 1997.
19. Farfiyev B.A. O'zbekistonda jamiyatni demokratishtirish jarayonida tafakkur tarzini takomillashtirishning ijtimoiy ma'daniy xususiyatlari: Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent:, 1999.
20. Kalonov K.K. O'zbekiston o'zini o'zi boshqaruv tizimi dinamikasi tahlil qilishda avtoritetning tutgan o'rni: Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent, 2000.
21. Yunusov A.B. O'smir yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari: Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent: O'zMU, 2004.
22. Norbekov A.Sh. O'zbekistonda ijtimoiy kafolat tizimini yaratish muammolari: siyosiy-sotsiologik tahlil. Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent, 2004.
23. Latipova N.M. Rol molodix specialistov v transformasii sotsialnoy strukturi uzbekistanskogo obshchestva: Dis....kand.sotsiol.nauk. – Tashkent, 2009.
24. Ganieva M.X. Obshchestvennoe mnenie kak faktor razvitiya mejnacionalnix otnosheniy: Dis....dok.sotsiol.nauk. – Tashkent. – Tashkent. 2009

#### **Elektron ta'lim resurslari:**

1. [http: www.lib.socio.msu.ru](http://www.lib.socio.msu.ru)
2. [http: www.socioline.ru](http://www.socioline.ru)
3. [http: www.socio.rin.ru](http://www.socio.rin.ru)
4. [http: www.sociologos.narod.ru](http://www.sociologos.narod.ru)
5. [http: www.socionet.narod.ru](http://www.socionet.narod.ru)
6. [http: www.sociograd.ru\\_\\_](http://www.sociograd.ru__)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ro'yhatga olindi:

“TASDIQLAYMAN”

№ \_\_\_\_\_

O'quv ishlar bo'yicha prorektor

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 y.

\_\_\_\_\_ dots.SH.Kenjaboyev

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 y.

**IJTIMOIY FANLAR  
kafedrası**

**SOTSIOLOGIYA  
fani**

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

Kurs - 3  
Semestr - 5,6  
Ma'ruza - 18 soat  
Seminar - 18 soat  
Mustaqil ta'lim - 20 soat

**NAMANGAN – 2016**

**“SOTSILOGIYA” FANIDAN  
(Bakalavr yo’nalishlari uchun)**

**ISHCHI O’QUV DASTURI**  
Mashg`ulot va nazorat turi

Mavsum semestr	Mashg`ulot tarkibi						Nazorat turi	Jami o`quv soati
	Ma'ruza	Seminar	Tajriba mashg`ulot	Kurs ishi	Mustaqil ta'lim	Nazorat ishi		
Kunduzgi ta'lim								
V-VI	18	18			20	Reyting	TEST	56

Ishchi dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 17 sentabrdagi 392-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy o'quv muassasalari uchun SOTSILOGIYA fanidan **Namunaviy o'quv dasturlari** (*tajriba sinov*) asosida tuzildi.

**Tuzuvchilar:** dots.X.Urinboyev, ass.A.Nurmatov

**Taqrizchi:** dots. A.Abdulazizov

Fanning ishchi o'quv dasturi "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining 2016 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ "\_\_\_"-son yig'ilishida muxokamadn o'tgan va fakultet kengashida muxokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri** \_\_\_\_\_ **dots.A.Soxadaliyev**

Fanning ishchi o'quv dasturi "Muxandislik-texnika" fakultet kengashida muxokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2016 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi sonli bayonnoma)

**Fakultet dekani:** **dots. B.Ergashev**

**Kelishildi:**

**O'quv uslubiy bo'lim boshlig'i**

**dots.A.Normirzayev**

## KIRISH

Sotsiologiya gumanitar fanlar doirasidagi shunday yo'nalishki, u butun jamiyat va uning ijtimoiy tizimini tashkil etadigan tarkibiy qismlarining rivojlanish va mavjud bo'lish qonuniyatlarini, turli sotsial jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va kishilarning sotsial xulq-atvori qonuniyatlarini o'rganadi.

Sotsiologiya fani jamiyatda ro'y berayotgan yirik ijtimoiy siyosiy voqealarni shunchki qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki uning asl mohiyati va mazmunini atroflicha ochib beradi. Bu fan o'zining ilmiy xulosalarini empirik darajada asoslangan xolatda ilgari suradi.

Sotsiologiya fan sifatida hozirgi ijtimoiy jarayonlar xolatiga to'laqonli javob berish bilangina cheklanmasdan, balki ularning istiqboldagi o'zgarish darajasi xususida bashorat qiladi. Ana shu jixatdan sotsiologiya fani nazariyasi, amaliyoti va tadqiqot usullarini atroflicha o'rganib chiqish zarurati tug'iladi.

Fanning asosiy mohiyati sotsiologiya rivojlanishining nazariy uslubiy asoslari, fanning predmeti va ob'ekti, institutlashgan shakllari, ijtimoiy fikrning tarixiy rivojlanishi, fanlar tizimida sotsiologiyani o'rni, Sotsiologiyani tushunishdagi ilmiy nazariyalar, uning tushunchalar tizimini ko'rib chiqishda namoyon bo'ladi.

Fanning nazariy asoslari dolzarb ijimoiy jarayonlar, sotsial struktura va sotsial tizimlarning mavjud bo'lishi va rivojlanish muammolari, jamiyat sotsial madaniy tizim sifatida, shaxs ijtimoiy munosabatlarning ob'ekti va sub'ekti sifatida, sotsial munosabatlar, ijtimoiy jamoalar, sotsial aloqalar, sotsial tashkilotlar, guruhlar, sotsial institutlar va institutlashgan munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni batafsil bayon qilish bilan mos keladi. Bunda asosiy e'tibor amaliy faoliyatda sotsiologik bilim va usullardan foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqishga, O'zbekiston va jaxondagi sotsial muammolarga nisbatan qiziqishning oshganligiga qaratiladi.

Ushbu dastur sotsiologiya fani qo'lga kiritgan va munozarali Sotsiologik masalalar yuzasidan keyingi yillarda monografiya, dissertasiya, ilmiy maqolalar, darslik va o'quv qo'llanmalarda bildirilayotgan fikrlar, O'zbekistonda Sotsiologiya ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida qilinayotgan harakatlar hamda bir necha yillardan buyon bu fanni oliy ta'lim tizimida o'qitish tajribasini hisobga olgan holda tuziladi.

Dasturda sotsiologiya fan sifatida shakllanishi, uning tarkibiy tuzilishi, jamiyatni yaxlit tizim tariqasida taxlil qilish, ijtimoiy hayotda sotsial institutlar roli, deviant xulq atvor va sotsial nazorat masalalari, jamiyatning sotsial strukturasi va stratifikasion jarayonlar, sotsial munosabatlar, ijtimoiy taraqqiyot tendensiyalarini ifodalaydigan mavzular yoritilgan.

Dasturning yakunlovchi qismida empirik sotsiologik tadqiqotlarni olib borishga bag'ishlangan mavzu tavsiya qilingan. Bunda empirik sotsiologiyada keng o'rin olgan sotsiologik ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash hamda taxlil qilish uslublariga ham yetarlicha e'tibor qaratiladi.

## **O'quv fanining maqsadi va vazifalari**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda sotsiologiya fani mazmuni va mohiyati, sotsiologiya mutaxassisligining jamiyatdagi o'rni, xususiyatlari va kelajagi to'g'risida tasavvurlarni paydo qilish, ijtimoiy hayot muammolari yechimiga mos keladigan taklif va tavsiyalar mexanizmini ishlab chiqishda mazkur fanning roli haqida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

**Fanning vazifalari** – talabalarga jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy muammolarni sotsiologik nuqtai nazardan tushuntirish hamda fanning dolzarb masalalarini yechishning uslub va uslubiyotlarini, sotsiologik tahlil va tavsiyanomlar yaratishni o'rgatish.

### **Fan bo'yicha talabalarning bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar**

“Sotsiologiya” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- jamiyatni yaxlit ijtimoiy tizimligi, shaxs va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy xodisalar va muammolarga sotsiologik yondoshish, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillari, ijtimoiy hayot faoliyatini muvofiqlashtiridigan sotsial institutlar faoliyatini tahlil qilishni bilishi kerak;

- talaba sotsiologiya fanini mustaqil ijtimoiy fan sifatida shakllanishining tarixiy-siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-falsafiy asoslarini; sotsiologiya fani ob'ekti va predmeti, uning strukturasi va fanlar tizimidagi o'rnini; Sharq va G'arb mutafakkirlarining sotsiologik ta'limotlari mazmunini; ijtimoiy taraqqiyot va uning asosiy shakllarini; ijtimoiy hayotda milliy g'oya va mafkuraning sotsiologik ahamiyatini, shaxs ijtimoiylashuvi omillarini; jamiyatning sotsial strukturasi va uning o'zgarib borish xususiyatlarini; ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ma'lum bir qonuniyatlar asosida kechishini; jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'zaro boqliqlikda ekanligini yaxlit idrok etishni; jamiyat rivojining asosiy omillarini tasniflay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- talaba zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy siyosiy xodislarni turli tasniflay olishi; turli ijtimoiy-madaniy xususiyatda kechayotgan xodisalarni xolis qiyosiy taqqoslay olish, zamonaviy jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolardan ustuvorlarini aniqlash va ularni ob'ektiv taxliq qila olishi; muayyan xodisa va voqealarga kishilarning shaxsiy munosabatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarda ishtirok etishi; ijtimoiy siyosiy va ma'naviy soxalarda o'tkazilgan amaliy sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalana olish malakalariga ega bo'lishi kerak.

### **Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro boqliqligi**

Sotsiologiya fani ijtimoiy hayot muammolari va ijtimoiy taraqqiyot jarayonining turli omillarini kompleks tarzda o'rganuvchi fan hisoblanib, u tarix, huquqshunoslik, falsafa, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, psixologiya, siyosatshunoslik, etnografiya, iqtisod nazariyasi, matematika, statistika kabi fanlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi.

## Fanning ishlab chiqarishdagi o'рни

Sotsiologiya mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'z metodologiyasi va nazariyasiga egadir. Sotsiologiya fani jamiyat hayotidagi ijtimoiy muammolarni o'zining empirik bazasiga ega bo'lgan konkret amaliy tadqiqotlari bilan kompleks tarzda tadqiq etadi. Jumladan, ijtimoiy mehnat va uning samaradorligini oshirish, marketing tadqiqotlarini faol olib boradi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi:**

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“Sotsiologiya” fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

**O‘qitishning usullari va texnikasi.** Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O‘qitish vositalari:** o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Sotsiologiya” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Power Point” dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo‘yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog‘idagi rasmiy ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

### «Sotsiologiya» fanidan ma’ruza mashg‘ulotlari mavzulari taqsimoti

№	Mavzular nomi	Jami soat	Ma’ruza	Seminar	Mustaqil aqil ta’lim
1	Sotsiologiya fan sifatida	6	2	2	2
2	Sotsiologiyada shaxs muammosi	6	2	2	2
3	Jamiyat yaxlit tizim sifatida.	6	2	2	2
4	Sotsial guruhlar va sotsial institutlar	6	2	2	2
5	Deviant xulq-atvor va sotsial nazorat, yoshlar sotsiologiyasi	6	2	2	2
6	Jamiyat sotsial strukturasi va stratifikasion jarayonlar.	8	2	2	4
7	Sotsial munosabatlar	6	2	2	2
8	Ijtimoiy taraqqiyot sotsiologiyasi	6	2	2	2
9	Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari	6	2	2	2
<b>JAMI</b>		<b>56</b>	<b>18</b>	<b>18</b>	<b>20</b>

## **Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

### ***MA'RUZA MASHG'ULOTLARI***

#### **Kirish. Sotsiologiya fan sifatida (2 soat)**

Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy va ilmiy shart-sharoitlar. O.Kont – pozitiv sotsiologiyaning asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejalari. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Haldun va boshqalar). G'arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammosi. Sotsiologiyaning turli yo'nalishlarida sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammosini yechish yo'lidagi g'oyaviy-nazariy izlanishlar.

Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan munosabati. Sotsiologiya va falsafa. Sotsiologiya va biologiya. Sotsiologiya va psixologiya, demografiya, genetika, sotsial geografiya. Sotsiologiya va tabiiy hamda texnik fanlar. Sotsiologiyaning fanlar tizimsidagi tutgan o'ziga xos o'rni.

Jamiyat insonlar o'rtasida sotsial aloqalar, o'zaro ta'sir va munosabat tashkil etishning universal usulidir. Ushbu munosabatlar? o'zaro aloqalar «ehtiyotlar», «motivlar», «qadriyatlar» asosida shakllanadi.

**M. Veber** fikricha, jamiyat – sotsial, ya'ni boshqa insonlarga yo'naltirilgan harakatlar mahsuli bo'lgan insonlar munosabatidir. T. Parsons fikricha esa, jamiyat qadriyatlar va me'yorlar orqali tuziladigan munosabatlar tizimi. K. Marks fikricha esa, jamiyat – insonlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi munosabatlar majmuasidir. Ingliz olimi G. Spenser jamiyatni tirik biologik organizmga analogiya qiladi.

Jamiyatlar siyosiy jihatdan avtoritar, totalitar va demokratik turlarga bo'linadi.

1. **Totalitar jamiyat** (lot. umumiy, butun, jamiki) – avtoritar shakllaridan biri. Jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan yalpi nazorat o'rnatiladi.

2. **Avtoritar jamiyat** (lot. boshlovchi, asoschi, ijodkor, muallif) – demokratik bo'lmagan siyosiy rejimga asoslangan yoki siyosiy ongning avtoritar shakli. Bu siyosiy hukmronlik qilishning o'ta reaksiyon davlat tizimi. Shaxsning diktatorlik elementlari bilan uyg'unlashib ketadi.

3. **Demokratik jamiyat** (yunon. xalq hokimiyati) – xalqning hokimiyat manbai ekanligi, davlat ishlarini hal qilishda qatnashishini bildiradi. Ijtimoiy tuzilma – jamiyatning ijtimoiy asosini tashkil qiladi.

Hozirgi kunda jamiyatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati: – (Ko'proq G'arbda; Skandinaviya davlatini misol keltirish mumkin).

2. Iste'mol qilish jamiyati (AQShda XX asr 40–50-yillarda yuzaga kelganligi bilan xarakterlanadi).

3. Ochiq va yopiq jamiyat. Ochiq jamiyat – demokratik jamiyat bo'lib, tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat. Yopiq jamiyat – dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehrli (magik) tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan xarakterlanadi.

4. Industrial (sanoat) jamiyati. (XX asr 50-60 -yillarida yuzaga keldi. Bu konsepsiya o'z mohiyatiga ko'ra, markscha ijtimoiy-iqtisodiy formasiya to'g'risidagi ta'limotlarga qarshi qaratilgan.

Jamiyatlarning zamonaviy ko'rinishlari:

- 1) agrar jamiyatlar      2) industrial jamiyatlar      3) postindustrial jamiyatlar

#### 4-MAVZU SOTSIAL GURUHLAR VA SOTSIAL INSTITUTLAR

##### Reja

1. Sosial guruh tushunchasi va turlari.
2. Sosial institut va uning turlari.
3. Jamiyat hayotida sosial institutlarning o'рни va roli

**Guruh** – bu xatti-harakatlari rasmiy va norasmiy institutlar tomonidan boshqariladigan, ma'lum norma va qadriyatlarga ega bo'lgan, boshqa birliklardan o'z xususiyatlari bilan farq qiladigan, bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog'langan kishilar yig'indisidan iborat bo'lgan sotsial birlikdir.

Guruhga xos xarakterli xususiyatlar quyidagilar: guruh soni, ichki tashkilot, ya'ni institutlar, nazorat shakllari; faoliyat namunalari; norma va qadriyatlar; farq qiladigan xususiyatlari.

Guruhlar eng avvalo miqdor jihatdan **katta va kichik** guruhlarga bo'linadi. Umuman, katta sotsial guruh deganda, a'zolar soni ko'p bo'lgan kishilar guruhlarini tushuniladi. Katta sotsial guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

-a'zolar sonining ko'pligi;

-yagona hududning mavjud emasligi;

-a'zolar o'rtasidagi aloqalarning asosan ommaviy aloqa vositalari orqali o'rnatilishi;

-guruh tuzilishining murakkabligi, aniqroq qilib aytganda, bu guruhlar ko'p rasmiy va norasmiy, uyushgan va uyushmagan guruhlarini o'z ichiga oladi.

Katta guruhlar ikki turga bo'linadi.

1. Tasodifiy, stixiyali paydo bo'ladigan va qisqa vaqt mavjud bo'ladigan guruhlar. Bularga olomon, xaloyiq (publika), auditoriya va boshqalarni kiritish mumkin.

2. Tarixiy rivojlanish natijasida vujudga kelgan va jamiyat ijtimoiy munosabatlari tizimida ma'lum o'ringa ega bo'lgan birliklar. Bu turdagi guruhlarga sotsial sinflar, turli etnik guruhlar (ellat, xalq, millat), kasbiy guruhlar, jinsiy va yoshga oid guruhlar (yoshlar, ayollar, keksalar) va boshqa guruhlarini kiritish mumkin.

Jamiyatning fundamental ehtiyojlarini qondirish uchun hizmat qiladigan muassasalar **sotsial institutlar** deb ataladi. Oila, din, ishlab chiqarish, ta'lim, davlat, mahalla-insoniy jamiyatning sotsial institutlari hisoblanadi. Sotsial institutlar majmuasi jamiyatning sotsial sistemasi deyiladi.

Ijtimoiy munosabatlarda sohalarga doir ijtimoiy institut turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiy institutlar;

2) siyosiy institutlar;

3) nikoh, oila va qon-qarindoshlik;

- 4) tarbiya institutlari;
- 5) madaniyat sohasi institutlari.

Jamiyat hayotida sotsial va ijtimoiy munosabatlarni shakillantirishda alohida o'rin tutib, o'z maqsad faoliyati jarayonida maqbul xatti-xarakterlar uchun rag'bat va deviant xatti-xarakterlar uchun sanksiya tavsiflangan.

## **5-MAVZU: DEVIANT XULQ ATVOR VA SOTSIAL NAZORAT, YOSHLAR SOSIOLOGIYASI**

### **REJA**

1. Deviant xulq-atvor nazariyasining mazmun-mohiyati.
2. Deviant xulq-atvor turlari va ko'rinishlari.
3. Sotsial me'yor va sotsial nazorat.
4. Yoshlar sosiologiyasining maqsad va vazifasi
- 5.

**Deviant so'zi** – lotincha “**deviatio**” so'zidan olingan bo'lib, chekinish, buzilish degan ma'noni anglatadi. Deviant xulq-atvor – mavjud jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy xodisadir.

Sotsiologiyada ijtimoiy me'yor buzish jarayonlarini to'la ijtimoiylikda tushuntiruvchi dastlabki ta'limot **E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasi** edi. Bunga ko'ra eski me'yorlar va qadriyatlar mavjud munosabatlarga mos kelmay qolishi va yangiliklarining o'rnatilmaganligi natijasida individlar xulq-atvorini tartibga soluvchi qat'iy axloqning mavjud emasligi tushuniladi. Deviant xulq-atvoriga **R.Merton** ishlab chiqqan ta'limot zamonaviy sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. **E.Dyurkgeymning** anomiyasini rivojlantirib, **Merton** deviant xulq-atvoriga quyidagicha ta'rif beradi; *“Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvori motivlari va mavjud imkoniyatlarning bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir”*.

Deviant xulq-atvorning eng ko'p uchraydigan va yaqqol namoyon bo'ladigan turlari; jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik va fohishabozlikning nima ekanligini aniqlab olishimiz kerak.

Me'yor doimiy, o'rtacha tushuncha bo'lganligi sababli uning salbiy va ijobiy ma'noda buzilish mavjuddir. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi har qanday yangilik me'yorni ijobiy ma'nodagi buzilishidir.

**Ijtimoiy me'yor** – jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, ma'lum shart-sharoitlarda shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorining morslashishi vositalaridan biri va ularning xulq-atvorlarini jamiyat tomonidan nazorat qilish vositasidir.

Ijtimoiy me'yorning bir qancha turlari mavjud; 1) Axloqiy 2) Huquqiy 3) Diniy 4) Urf-odat.

Yoshlar sotsiologiyaning bu maxsus nazariyasi jamiyatning barcha ijtimoiy sohalaridagi yoshlar bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti va yoshlar muammosi; xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning yosh mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoji; ta'lim tizimi va yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash; demografik jarayonlar va yoshlarni ish bilan ta'minlash; yoshlarning ma'lumot olishi va kasb tanlashi muammosi; yoshlarning kasb tanlashi va sotsial mobillik; yoshlarni kasb tanlashida milliy, hududiy va

mintaqaviy xususiyatlar; yoshlarning ma'lumot olish imkoniyatlarini oldindan prognoz berish; yoshlarda mehnat malakasini shakllantirish masalalari; shahar va qishloq yoshlari hayoti; yoshlarning turmush darajasi kabi masalalar shular jumlasidandir.

## **6-MAVZU. JAMIYAT SOTSIAL STRUKTURASI VA STRATIFIKASION JARAYONLAR.**

### **REJA:**

1. Sotsial struktura tushunchasi.
2. Sotsial stratifikatsiya nazariyasi.
3. Sotsial mobillik va uning turlari.

**Sotsial struktura** – sotsial sistemadagi elementlarning mustahkam aloqasidir. Sotsial strukturaning asosiy elementlari ma'lum mavqeni (status) egallovchi, aniqlangan funksiyalarni (rol) bajaruvchi individlardir. Bu individlar ularning mavqeyi belgilari asosida sotsial-territorial, etnik va boshqa turdagi guruh va birlashmalarga birlashadi. Sotsial struktura jamiyatni jamoa, sinflar, qatlamlarga ob'ektiv bo'linishini anglatadi. Elementlarning qay biri muhimligiga qarab jamiyat strukturasi guruh, stratifikasion, jamoaviy, institusional, tashkiliy va h.k. larga bo'linadi. Sotsial sostav nuqtai nazaridan jamiyat strukturasi barcha elementlari gorizontol joylashgan, ya'ni real o'zaro ta'sirda rasman tengdir. Lekin real o'zaro aloqada ular teng emas.

Har qanday jamiyatda turli individlar, guruhlar, sinflar, jamoalar, institutlar, tashkilotlar turlicha o'rinni egallaydi. Sotsial tengsizlik jamiyatda ierarxik strukturaning mavjudligini belgilaydi. Bir toifa individ, guruh, sinflar, jamiyatlar boshqalarga nisbatan yuqori yoki pastda joylashadi. Tengsiz tamoyilidan kelib chiqqan holda, sotsial sostav sotsial stratifikatsiyaga-vertikal ierarxik tarzda joylashgan sotsial shakllarga (guruhlar, sinflar, kastalar, zotlar va h.k.) aylanadi. Demak sotsial stratifikatsiya-vertikal tarzda joylashgan sotsial qatlamlar majmuasidir. **Stratifikatsiya** tushunchasi geologiya fanidan o'zlashtirilgan (stratum-qatlam, fasio-yasayman) Sotsial stratifikatsiya termini sotsiologiyaga rus-amerika sotsiologi Pitirim Sorokin tomonidan kiritilgan.

Sotsiologiyada stratifikatsiyaning 4 asosiy o'lchami mavjud:

1. Daromad.
2. Ma'lumotlilik darajasi.
3. Hokimiyat.
4. Kasbning prestijlili.

**Daromad** – alohida individning yoki oilaning ma'lum vaqt ichida so'md yoki dollarda oladigan puli bilan o'lchanadi.

**Ma'lumotlilik darajasi** davlat yoki xususiy maktab, OO'Yuda o'qigan yillari bilan o'lchanadi.

**Hokimiyat**- siz qabul qilayotgan qaror tegishli bo'lgan insonlar soni bilan o'lchanadi

**Kasbning prestijlili.** jamoatchilik fikrida xurmatga ega bo'lgan mavqe. Shu mezon bo'yicha ba'zi kasblar obro'li, ayrimlari esa obro'ga ega emas deb hisoblanadi

Jamiyatda insonlarni 2 ko'rsatkich bo'yicha stratalarga ajratamiz: Nominal status (jins, irq, etnik kelib chiqish, tug'ilgan joyi va h.k.)

Jamiyatni ijtimoiy qatlamlar, guruhlariga bo'lish mezonlarini oldinga surgan sotsial stratifikatsiya teoriyasi **sotsial mobillik** teoriyasining shakllanishiga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Sotsial mobillik** deb individ yoki guruh tomonidan jamiyat stratifikasion tizimida egallagan sotsial maqomini, statusini o'zgarishi, ya'ni insonlarning sotsial ko'chishiga aytiladi. Mobillik inglizcha mobilite- «ko'chish», «safarbarlik» ma'nosini anglatadi. «Sotsial mobillik» termini sotsiologiyaga P. Sorokin tomonidan 1927 yilda kiritilgan. Sorokinga ko'ra, sotsial mobillikning 2 turi mavjud: vertikal va gorizontal sotsial mobillik.

Vertikal mobillik o'z o'rnida yuqoriga va pastga yo'naltirilgan bo'ladi. Yuqoriga yo'naltirilgan sotsial ko'tarilish, yuqoriga harakatni, pastga yo'naltirilgan-sotsial tushish, pastga harakatni anglatadi.

**Gorizontal sotsial** mobillik individning bir sotsial qatlamdan shu darajada joylashgan boshqa qatlama o'tishini anglatadi. Mobillikning bu turi yashash joyi (migrasiya) ni, boshqa diniy guruhga (dinini o'zgartirishi va h.k.) bildiradi. Vertikal sotsial mobillik bir stratadan boshqasiga o'tishni nazarda tutadi. Vertikal sotsial mobillik hayot davomida insonning yuqori statusni quyiga, quyi statusni yuqori darajadagisiga almashishidir. M-n, vodoprovod ta'mirlovchisining korporasiya prezidenti darajasiga ko'tarilishi yoki teskari jarayon.

Sotsial mobillik boshqa mezonlarga ko'ra klassifikasiya qilinishi mumkin. Masalan, individual va guruhiy mobillik.

**Individul mobillik**-individning gorizontal yoki vertikal chiziq bo'yicha yuqoriga va pastga ko'chishi boshqalarga bog'liq bo'lmagan holda sodir bo'ladi.

Guruhiy mobillikda ko'chishlar guruhiy, kollektiv holda sodir bo'ladi, u yoki bu strataning sotsial mavqei o'zgaradi. Masalan, sotsialistik revolyusiyadan keyin xokimiyatdagi sinf o'z vakolatlarini yangi sinfga bo'shatib beradi. Bularga ilm-fan revolyusiyalari, fuqarolar urushlari, to'ntarishlar, islohatlarni misol qilib olish mumkin.

## 7-MAVZU. SOTSIAL MUNOSABATLAR

### REJA:

1. Sosial munosabat tushunchasi
2. Sosial munosabat turlari.
3. Milliy g'oyaning sosial munosabatlar tizimidagi o'rnini va roli

Sotsiologiya fani tizimida sotsial munosabatlar juda muhim o'rin tutadi. Chunki u orqali jamiyat a'zolari bir-birlari bilan ma'lum bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiyadagi bu maxsus soha o'zining o'ta dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va masalalardan ajralib turadi.

**Sotsial munosabatlar** tushunchasi ko'pgina adabiyotlarda 2 xil darajada: keng va tor ma'noda talqin qilingan.

Keng ma'noda tushunish – sotsial munosabatlarni butun bir ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tenglashtirishdir va ular orasidagi farqlarga ko'p e'tibor bermaslik bilan bog'liqdir.



Tor ma'noda sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir muhim elementi va turi deb interpretasiya qilinadi. Sotsial munosabatlar keng ma'noda quyidagicha ta'rif bilan belgilangan.

Sotsial munosabatlar – bu, tabiat hodisalaridan o'laroq bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlarning butun bir tizimi mujassamlashgandir.

**Ijtimoiy struktura** – jamiyatning ijtimoiy asosidir. Sotsiologiya nazariyasida barcha ijtimoiy tizimlar 2 xil munosabatda mavjud bo'ladi:

1. Sosietal munosabatlar;
2. Ijtimoiy munosabatlar.

Sosietal munosabatlar sistemasiga jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ular bir-birlari bilan uzviy aloqador tizimga ega. Sosietal sistemasida ierarxik qaramlik mavjud. Ya'ni, bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi omil bo'ladi. Demak, Sosietal munosabatlar sistemasi tuzilishi:

- iqtisodiy: (asoschisi A.Smit: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsuli, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ham ishlashga majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda o'zi uchun ham ishlaydi);
- ijtimoiy: a) ijtimoiy munosabatlarning asosiy elementini ijtimoiy jamoalar tashkil etadi (sinflar, millatlar professional, demografik, hududiy, siyosiy guruhlar); b) elementi kishilar (jamoaga birikadigan insonlar); v) oila tashkil etadi.
- siyosiy;  
mafkuraviy.

Ijtimoiy munosabatlar o'z mohiyatiga ko'ra jamiyat taraqqiyotiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etadi.

**Ijobiy munosabatlar ta'siri:** hamfikrlilik, kooperasiya, kurash.

**Salbiy ta'sirli munosabatlar:** befarklik, kamsitish, konfliktlar, begonolashuv, krizis, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlar 2 turga bo'linadi:

1. Moddiy munosabatlar.
2. Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar.

**Moddiy munosabatlar** - inson hayotining moddiy taraqqiyotidagi munosabatlar: inson yashashi, bor bo'lishi uchun, avvalo u moddiy ehtiyojini ta'minlashi kerak. U oziq-ovqat, kiyim, turarjoy bilan ta'minlanishi lozim. Ana shu ehtiyojini qondirish uchun u jamiyatda boshqa insonlar, guruhlar bilan munosabatda bo'ladi. Shuningdek, oila ham, guruhlar ham, xoli davlat ham nihoyat butun jamiyat hisoblanadi.

**Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar** - siyosiy, huquqiy, axloqiy va diniy munosabatlar. Uning asosiy o'zagini moddiy munosabatlar tashkil etadi. Demak, moddiy munosabatlar bazis, ideologik munosabatlar ustqurma hisoblanadi.

**Madaniy munosabatlar** ham mavjud.

Ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik:

- 1) insonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;
- 2) turli ijtimoiy guruh, qatlam, toifalr o'rtasidagi hayotiy bog'liqlik;
- 3) insonlarning ijtimoiy-maishiy sohadagi o'zaro bog'liqligi mavjud.

## 8-MAVZU. IJTIMOYIY TARAQQIYOT SOTSIOLOGIYASI

### REJA:

1. Ijtimoiy taraqqiyot tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Evolyusion, revolyusion va reformistik taraqqiyotlar.
3. Sotsial reformalar va ularning turlari.
4. Sotsial boshqaruv tushunchasi.

**Ijtimoiy taraqqiyotning mohiyati** - madaniyatni qayta tashkil etish: shaxsan an'anaviy tur, qotib qolgan ijtimoiy formalarni o'zgaruvchan, jo'shqinlikni ifodalovchi tuzumlar va munosabatlar bilan almashtirish zarurligini belgilab beradi.. Sub'ektiv sotsiologlar andozalarida shaxs, asosan harakatga keltiruvchi kuch sifatidagina emas, shuningdek, ijtimoiy hayotning o'lchovi hamdir.

Ijtimoiy taraqqiyotning oliy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun xizmat qiladigan munosabatlarni yaratishdan iborat.

Kont nuqtai nazariga ko'ra, Sotsiologiya pozitiv mohiyatga ega fandır. «**Pozitiv usul**» ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usuli yordamida to'plangan empirik ma'lymotlarni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi.

**O. Kont** tomonidan 1839 yilda «**Pozitiv falsafa kursi**» asarining uchinchi tomi nashr etilganligi natijasida birinchi marotaba u jamiyatni ilmiy asosda o'rganish sifatida Sotsiologiya atamasini qo'lladi va bu Sotsiologiya ning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.

Ijtimoiy munosabatlarning unumli tarzda kechishini har-xil mezonlar yordamida o'rganadigan fan sotsiologik boshqaruv deb nomlanadi.

Ijtimoiy boshqaruv faniga XX asrning boshlarida **F. Teylor, M. Veber, A. Fayola** kabi olimlar asos soldilar. XX asr o'rtalaridan boshlab boshqaruv muammolarning yechilishida sistemali yondoshuv usuli qo'llanila boshlandi.

Hozirgi davrda tashkilot va korxonalarni (davlatniki yoki xususiy bo'lishidan qat'iy nazar) unumli boshqarish davr talabidan kelib chiqib, samarali boshqaruv mexanizmlarini yaratishni va joriy etishni taqozo qiladi.

Ijtimoiy boshqaruvning takomillashuv istiqbollari O'zbekistonda barcha islohotlarni yanada tezroq va samaraliroq amalga oshirish, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, o'z-o'zini boshqarish tizimlarini takomillashtirish va oxir oqibatda aholining turmush darajasini oshirish imkonini yaratadi.

Axborotlarning inson tomonidan tez o'zlashtirilishi va uning yangi sharoitlarga moyillik qobiliyatlarini oshirib borishi har qanday boshqaruv tizimining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, «inson omili»ni doimo va aniq hisobga olishni taqozo qiladi.

**Ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish va boshqarish quyidagi asosiy vazifalarni ko'zlaydi:**

- istiqbolni baholash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlarini aniqlash va unga oqilona yetishishning samarali vositalarini belgilash;

- me'yorlarni aniqlash, istiqboldagi asosiy ijtimoiy talab va uni qondirish imkoniyatlarini belgilash;

- tahdidlarni taxminlash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga aks ta'sir etish mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash va tahlil etish.

## 9-MAVZU. EMPIRIK SOTSIOLOGIK TADQIQOT VA UNING METODLARI.

### REJA:

1. Empirik sotsiologik tadqiqot va uning asosiy bosqichlari.
2. Sotsiologik tadqiqot dasturi va uning tuzilishi.
3. Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullari.
4. Sotsiologik tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq etish usul va shakllari.

**Empirik sotsiologik tadqiqot** – o'rganilayotgan ob'ekt haqida aniq ma'lumot olish maqsadida tashkil etilgan, mantiqiy ketma-ketlikdagi metodologik, metodik va tashkiliy muolajalar tizimidir. Har qanday sotsiologik tadqiqot o'tkazilishidan oldin biz uning dasturini tuzib olishimiz lozim.

Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. **Empirik** so'zi qadimiy yunoncha bo'lib, tajriba ma'nosini anglatadi. Empirik sotsiologik tadqiqot deganda, yangi dastur va uslubiyat bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot, hodisa va jarayonlar to'g'risida olingan empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqish tushuniladi. Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fakt deb, ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy voqelikning alohida jihatlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytiladi.

Amaliy sotsiologik tadqiqot jarayonini 4 asosiy bosqichga bo'lib qo'rsatish mumkin. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va muhim jihatlariga ega. Bular quyidagilardan iborat:

#### **1. BOSQICH. Sotsiologik tadqiqotni tayyorlash va tashkil qilish:**

Amaliy sotsiologik vazifani belgilash va tadqiqot predmetini tanlash.

Sotsiologik tadqiqot o'tkazish bo'yicha byurtma qabul qilish va uni o'tkazish bo'yicha shartnoma to'zish.

Bajariladigan ishlar bo'yicha kalendar reja, texnik vazifalarni va byudjet (sarf qilinadigan xarajatlar smetasini) tuzish.

Dastur ishlab chiqish.

Tadqiqot uslubiyati, texnikalari va vositalarini ishlab chiqish.

#### **2. BOSQICH asosiy bosqich bo'lib, amaliy tadqiqot ishlari olib borish jarayonini o'z ichiga oladi:**

Sotsiologik tadqiqot tanlovini o'tkazish.

Pilotaj.

Dastlabki sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish.

Empirik ma'lumotlarning sifat va aniqlik darajasini nazorat qilish.

#### **3. BOSQICH. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash:**

Olingan empirik ma'lumotlarni guruhlariga ajratish.

Taqsimiy jadval tuzish.

Empirik ma'lumotlarni kompyuterga kiritish va modellashtirish.

**4. BOSQICH yakunlovchi bosqich bo'lib olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi:**

Tadqiqot ma'lumotlarining dastlabki tasnifi va nazariy jihatidan fahmlamoq.

Ilmiy-nazariy xulosalar, muayyan ilmiy-amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish.

Berilgan vazifa bo'yicha ilmiy matnlar, hisobotlar tayyorlash.

Germaniyalik sotsiologlar amaliy sotsiologik tadqiqotlarni 3 bosqichdan iborat deb qo'rsatadilar:

Har qanday empirik sotsiologik tadqiqot dasturining umumiy talablari mavjud. Bularga, tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash; ishchi farazni ishlab chiqish; dasturni ishlab chiqish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish kabilar kiradi. Sotsiologik tadqiqot dasturi ichki tuzilishi jihatidan quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

**1. Nazariy - metodologik qism.**1.1. Sotsiologik muammoni ishlab chiqish, tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash.1.2. Tadqiqot ob'ekti va predmetini belgilash.1.3. Asosiy tushunchalarni ishlab chiqish.1.4. Tadqiqot predmetining dastlabki taxminiy tahlili.1.5. Ishchi farazni ishlab chiqish.

**2. Amaliy sotsiologik tadqiqotni ish jarayoni qismi:**2.1. Tadqiqotning umumiy rejasi.2.2. Asosiy amaliy ish jarayonlari.2.3. Tanlov ishlari.2.4. Dastlabki olingan sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining tasnifi.2.5. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish nazarda tutilgan yo'nalishlar.

**3. Xulosa qismi.**3.1. Tadqiqot natijalarining mazmunan tasnifi.3.2. Buyurtmachiga tadqiqot natijalarini taqdim qilish shakllari (asosiy xulosalardan iborat hisobot, amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlardan iborat).

Sotsiologik tadqiqot dasturida muammo qo'yiladi va uning nazariy sxemasi tuziladi, tushunchalar operatsionalizatsiya qilinadi, ya'ni abstrakt tushunchalar aniq kuzatilayotgan xususiyatiga ko'ra birlashtiriladi. So'ngra gipoteza oldinga suriladi.

Birlamchi ma'lumotlarni yig'ishda sotsiologiyada 4 asosiy metod qo'llaniladi:

**1. So'rov metodi.**

**2. Hujjatlarni tahlil qilish metodi.**

**3. Kuzatish metodi.**

**4. Sotsial eksperiment.**

Sotsiologik tadqiqotning natijalarini to'g'ri izohlab beruvchi qator ilmiy-uslubiy yechimlar tizimi mavjuddir, ammo har bir konkret holatda bu narsa bir butun kishilar jamoasi (sotsiologlar, tashkilotlar ma'muriyati, ma'muriy va ma'rifiy sohalarda ishlovchi shaxslar, so'raluvchilarning o'zlari) ishtirokida amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va gipotezalarning hayotiyligi eng samarador vosita sifatida kishilarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi

## *Seminar mashg'ulotlarining tavsiya etilgan mavzular mazmuni*

### **1-mavzu: Sotsiologiya fan sifatida**

Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy va ilmiy shart-sharoitlar. O.Kont – pozitiv sotsiologiyaning asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejaları. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Haldun va boshqalar). G'arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammosi. Sotsiologiyaning turli yo'nalishlarida sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammosini yechish yo'lidagi g'oyaviy-nazariy izlanishlar.

Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan munosabati. Sotsiologiya va falsafa. Sotsiologiya va biologiya. Sotsiologiya va psixologiya, demografiya, genetika, sotsial geografiya. Sotsiologiya va tabiiy hamda texnik fanlar. Sotsiologiyaning fanlar tizimsidagi tutgan o'ziga xos o'rni.

Fanda struktura tushunchasi va uning ahamiyati. Sotsiologiyaning strukturasi. Sotsiologiyaning strukturasi va asosiy tarkibiy qismlari. Fundamental (asosiy) va amaliy sotsiologiya. Jamiyat hayotining fundamental muammolarini sotsiologik tahlil. Nazariy va amaliy sotsiologiya: ularning umumiyligi va farqi. Sotsiologiya tarixida universal nazariyalarni ishlab chiqishga bo'lgan intilishlar. Empirik sotsiologiyani bunyod bo'lishi va uni sotsiologiya nazariyasi rivojiga ta'siri.

## **2-mavzu: Sotsiologiyada shaxs muammosi**

Shaxs tushunchasi. Shaxs tushunchasini turli fanlardagi talqini. Shaxs, inson va individ tushunchalari. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Shaxs ijtimoiy munosabatlarning maxsuli sifatida. Shaxs to'g'risidagi asosiy sotsiologik nazariyalar. O'z-o'zini baholash va men ta'limotining shakllanishi, qadriyatlar va baholar. Shaxsning o'z-o'zini hurmat qilishi.

## **3-mavzu: Jamiyat yaxlit tizim sifatida**

Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi. Sharq mutafakkirlarining jamiyat to'g'risidagi qarashlari. G'arb sotsiologiyasi asoschilarining ishlarida ijtimoiylikning ta'riflanishi. M.Veber konsepsiyasida totalitar jamiyat, uning belgilari va ijtimoiy-siyosiy tashkil etilish usullari. Jamiyat va davlat. Jamiyatning mexanistik, organistik va boshqa tarzlarda ta'riflanishi. T.Parsons nazariyasida jamiyat tushunchasi, uning to'rt funksiyali paradigmasi. Hozirgi jamiyatning turlicha ta'riflari. An'anaviy jamiyat va industrial jamiyat, ularning belgilari. "Mo'l-ko'llik jamiyati", "Ochiq jamiyat", "Yopiq jamiyat", "Iste'mol jamiyati", "Postindustrial jamiyat" va boshqalar XX va XXI asr madaniy-tarixiy va siyosiy tizimlarni ta'riflash mezonlari sifatida

## **4-mavzu: Sotsial guruhlar va sotsial institutlar**

Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari. Sotsiologiyada sotsial guruhlarga ajratish mezonlarining xilma-xilligi. Sotsial guruh turlari: katta va kichik, rasmiy va norasmiy, birlamchi va ikkilamchi, inguruh va autguruh, referent guruhlar va boshqalar. G'arb sotsiologiyasida kichik guruhlar nazariyasi: sotsiometriya, guruh o'zgaruvchanligi, psixoterapevtik va boshqalar sotsial guruhlarning shakllanishi, ishlashi va taraqqiy etishi qonunlarini tushuntiruvchi nazariyalar sifatida. Kvaziguruhlar. Qon-qarindoshlikka asoslangan guruhlar: urug', qabila, qarindoshlar, oila, elat, millat. Ommani sotsiologik o'rganish.

Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi. Sotsial institut belgilari. Sotsial institutning asosiy funktsiya va vazifalari. Sotsial institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, ta'lim, huquq va boshqalar. Jamiyat hayotida sotsial institutlarning o'rni. Sotsial institutlarning hayotiy sikllari. Oila va nikoh. Iqtisodiy institutlar. Ularning ko'rinishlari va vazifalari. Iqtisodiy guruhlar va iqtisodiy hatti-harakat. Yashirin va norasmiy iqtisodiyot. Ishlab chiqarish, uning tarixiy shakllari va vazifalari. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va kasb. Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik. O'zbekiston sharoitida demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish. Davlat va jamiyatning siyosiy tizimi. Siyosiy institutlar, ularning agentlari va guruhlari. Elektoral xatti-harakatlarni tadqiq qilish. O'zbekistonda huquqiy ongning o'ziga xosligi. O'zbekistonda fuqarlik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Din sotsiomadaniy institut sifatida. Din funksiyalari, shakllari va xususiyatlari. Zamonaviy jamiyatda dinning o'rni va uning davlat bilan o'zaro munosabati. O'zbekistonda diniylik va dunyoviylik munosabatlari. Ta'lim sotsial institut sifatida. Uning taraqqiyoti va shakllari. O'rta va oliy ta'lim. Oliy ta'lim va fan: tarkibi va ilmiy-pedagogik kadrlar. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi va Yevropa hamda AQSh universitetlari: umumiylik va xususiylik. Ta'lim tizimidagi islohotlar: tajriba va istiqbol.

### **5-mavzu: Deviant xulq-atvor va sotsial nazorat. Yoshlar sotsiologiyasi**

Deviant xulq-atvor tushunchasi. Deviant xulq-atvor (og'ma xulq-atvor) muammosini o'rganish sotsiologiyadagi ilmiy yo'nalish sifatida. Deviant xulq-atvor turlari: qonunni buzish, o'z-o'zini o'ldirish, giyohvandlik va boshqalar. E.Dyurkgeym, R.Mertonlarning deviant xulq-atvor nazariyalari, Z.Freyd va E.Frommlarning destruktivlik (strukturani buzilishi) nazariyalari.

Sotsial me'yor va anomiya deviant xulq-atvor nazariyasining markaziy tushunchasi sifatida. Deviant xulq-atvor belgilari, ularning strukturasi. Deviant xulq-atvorni turkumlash. Buzilgan xulq-atvor mexanizmi. Deviant xulq-atvorning tibbiy-biologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy tomonlari. Hozirgi zamonda deviant xulq-atvorning tarqalishi va o'zgarishi. Deviant, delinkvent va kriminal xatti-harakatlar. Professional jinoyatchilik. Uyushgan jinoyatchilik. Dunyoda jinoyatchilik holati.

Jinoyatchilikning oshishi va jamiyatning kriminallashuvi sabablari va namoyon bo'lish shakllari. O'smirlar va yoshlar jinoyatchiligi. Jamiyatda korrupsiya muammosi. Deviant xulq-atvor funksiyalari.

Sotsial nazorat. Sotsial nazorat kishilar xatti-harakatini tartibga solish mexanizmi sifatida. P.Bergerning sotsial nazorat to'g'risidagi ta'limoti. Sotsial nazorat elementlari: me'yorlar va sanksiyalar. Sotsial sanksiyalar turlari: pozitiv va negativ, rasmiy va norasmiy. Sotsial me'yorlar tasnifi. Sotsial me'yor turlari: huquqiy, diniy, an'anaviy va axloqiy. Ichki va tashqi nazorat. O'z-o'zini nazorat qilish muammosi. Rasmiy va norasmiy nazorat agentlari. Nazorat usullari va ularning sanksiya turlariga bog'liqligi. Jamoatchilik fikri sotsial nazoratning shakli sifatida.

Yoshlar sotsiologiyasi tushunchasi. Yoshlar sotsiologiyasining tasnifiy belgikari. Hozirgi kunda yoshlarning ijtimoiy muammolari. Yoshlar potentsiali va ijtimoiy ehtoyoj: yoshlar siyosatining mohiyati

## **6-mavzu: Jamiyat sotsial strukturasi va stratifikasion jarayonlar**

Sotsial struktura tushunchasi va uning ahamiyati. Kishilik jamiyati tarixida sotsial struktura muammosining talqini. Sotsial struktura to'g'risidagi antik davr mutafakkirlarining ta'limotlari. P.A.Sorokinning sotsial stratifikatsiya to'g'risidagi nazariyasi. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holat, mavqe, ta'lim va hokimiyat. Stratifikatsiya va sotsial differensiya. Stratifikasion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar.

Sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik nazariyasi sinfiylik ta'limotiga qarshi g'oya sifatida. Jamiyat sotsial strukturasi rivojining zamonaviy tendensiyalari. Bozor munosabatlari sharoitida sotsial strukturaning o'zgarishi. Zamonaviy O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik masalalari tahlili.

Sotsial mobillik to'g'risidagi sotsiologiya klassiklari: M.Veber, E.Giddens, T.Parsons, P.Sorokin va boshqalarning qarashlari. Sotsial mobillik tushunchasi va uning mohiyati. Mobillik belgilari. Mobillik turlari: gorizontaal va vertikal sotsial mobillik. Guruhiy va individual mobillik. Avlod ichidagi va avlodlar o'rtasidagi sotsial mobillik. Strukturaviy sotsial mobillik. Jamiyatda sotsial mobillik yo'llari. Guruhiy berklilik. Mobillikning demografik omillari. Migrasiya va uning tarixiy shakllari. Emigrasiya va migrasiya. Mehnat va iqtisodiy migrasiya. Xorijiy ishchi kuchlar bozori. "Aqllar oqimi".

## **7-mavzu: Sotsial munosabatlar**

Sotsial munosabatlar. Sotsial munosabatlar tushunchasi, strukturasi, mohiyati. Sotsial munosabat turlari: hamfikrlik, kooperasiya, konfliktlar, kurash, begonlashuv, befarqlik, krizis, kamsitish, notenglik. Sotsial munosabatlar tizimidagi plyuralizm. Sotsial munosabatlarning asoslari. Sotsial munosabatlarning sub'ektiv jihatlari.

Hamfirklik, barqarorlik va kooperasiya – sotsial tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashining omillari sifatida. E.Dyurkgeym konsepsiyasida hamfirklik tushunchasi. Kooperatsiya ijtimoiylikning asosiy belgisi sifatida. Pozitivizm sotsiologiyasida barqarorlik va inqiroz ongi. Barqarorlikni strukturaviy-funksional asoslash.

Begonalashuv va tanazzul. E.Dyurkgeymning anomiya (qonunsizlik) konsepsiyasi, F.Tennis, M.Veber, G.Zimmel, ekzistensial va fenomenologik sotsiologiya asoschilari ta'limotlarida begonalashuv va jamiyatdagi krizis hodisalarining o'zaro aloqadorligi to'g'risidagi fikrlari.

Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlarini. Tenglik ijtimoiy tizim haqida g'oyalar. Tenglik va plyuralizm ijtimoiy tuzum tamoyillari sifatida. Plyuralizm turlari va ularning asoslari.

Milliy g'oya va milliy mafkuraning sotsial munosabatlar tizimidagi o'rni.

### **8-mavzu: Ijtimoiy taraqqiyot sotsiologiyasi**

Sotsiologiyada ijtimoiy taraqqiyot tushunchasi. Ijtimoiy o'zgarish va taraqqiyot tushunchalarining nisbati. Sotsial progress, regress, evolyusiya va revolyusiya sotsial o'zgarishlarning shakli sifatida.

Ijtimoiy progress muammolari. Ijtimoiy taraqqiyot shakllari: evolyusion, revolyusion va reformistik taraqqiyotlar. Sotsial revolyusiyalar va ularning salbiy oqibatlarini. Sotsial reformalar va ularning turlari. O'zbek rivojlanish modelida milliy mentalitetning o'rni. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida milliy tafakkur tarzi ahamiyati.

O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvni demokratiyalashtirish jarayonlarining o'ziga xosligi. Ijtimoiy taraqqiyotni boshqarish. Menejment va uning xususiyatlari. Global ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullar va ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga salbiy ta'siri. O'zbekiston ijtimoiy-madaniy xususiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullarga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishdagi ahamiyati.

### **9-mavzu: Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari ( 2 soat)**

Sotsiologik tadqiqot dasturi. Dasturning strukturasi: nazariy-metodologik va metodik bo'limlar. Dasturning asosiy elementlari: muammoni ta'riflash; tadqiqot maqsadi va vazifalarini, ob'ekti va predmetini aniqlash; ob'ektni tizimli tahlil qilish, tushunchalarni nazariy va empirik izohlash, gipotezalarni ifodalash; ma'lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish.

Sotsiologik informatsiyani (axborotni) to'plash metodlari. Sotsiologiyadagi ma'lumotlarni to'plash metodlarining umumiy tasnifi: so'rov, kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish metodlari, ularning o'ziga xosligi



So'rov metodi. So'rovning turlari. Anketa (so'rov varaqasi) so'rov metodining markaziy elementi sifatida. Anketa tuzish texnikasi. Anketaning umumiy tuzilishi. Anketadagi savollarning turlari, asosiy talablar. Og'zaki so'rov va uning xususiyatlari. Intervyu olish uslubi.

Kuzatish metodi va uning mohiyati. Kuzatish xillari. Kuzatishning aniqligi muammosi va uni ta'minlash usullari. Kuzatish davrlari va tartibi. Kuzatish asboblari, kuzatish natijalarini qayd etish usullari.

Hujjatlarni o'rganish metodi. Sotsiologiyada hujjat tushunchasi, uning turlari. Hujjatlarning informasiya manbai sifatidagi ishonchlilik muammosi. Hujjatlarni tahlil qilish turlari. Kontent-tahlil hujjatlarni o'rganish metodining bir turi sifatida.

Eksperiment metodi. Eksperiment turlari. Ijtimoiy eksperiment strukturasi, uning bilish imkoniyatlari. Ob'ektni tanlash, eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, eksperimental vaziyat, natijalarni tahlil qilish. Xulosalarni tahlil qilish usullari. Eksperimental va nazorat guruhlarini tuzish parametrlari. Eksperiment o'tkazish texnikasi. Xulosalarni taxlil qilish usullari

**SOTSIOLOGIYA” FANIDAN UMUMIY TEST SAVOLLARI:**

**1. Ko'pchilik sotsiologlar shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvini qaerda boshlanadi deb hisoblaydilar?**

a) maktab b) oila v) do'stlar davrasida g) mehnat jamoasida

**2. Intervyu usulining turlarini aniqlang:**

a) ochiq, yopiq, yarim ochiq b) erkin, standart, yarim standart  
s) og'zaki va yozma d) nazoratli, nazoratsiz va erkin

**3. O.Kontning "3 stadiya qonuni" asaridagi bosqichlar nomi:**

a) fetishizm, monoteizm va politeizm b) teologik, metafizik va pozitiv  
s) teologik, monoteizm va pozitiv d) teologik, pozitiv va negativ

**4. Sotsial norma va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishi jarayoni qanday nomlanadi?**

a) sotsial integrasiya b) sotsial adaptasiya  
s) sotsial interpretasiya d) sotsial interiorizasiya

**5. Shaxs yoki sosal guruhning ijtimoiy tizimda egallagan mavqeidan kelib chiqib amalga oshiruvchi faoliyatini ifodalovchi tushuncha – bu:**

a) sotsial status b) sotsial rol s) sotsial harakat d) sotsial munosabat

**6. Sotsiometriya – bu:**

a) katta va kichik guruhlar a'zolarini va ularning munosabatlarini miqdoriy jihatdan tahlil qilish

b) kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o'lchovlar asosida o'rganish

s) kichik guruhlardagi muammoli vaziyatlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilish

d) katta guruhlarda simpatiya va antipatiya munosabatlarini aniqlash

**7. Sotsial statika nimani o'rganadi?**

a) ijtimoiy voqelikning tabiiy qonunlarini

b) voqea va hodisalarning o'sish va rivojlanishini

s) ijtimoiy elementlarning muvozanatini, mavjudlik qonunlarini

d) ijtimoiy tanazzulni

**8. Kontent-analiz metodi-bu...**

a) so'rovning bir turi

b) kuzatish usuli metodlaridan biri

s) hujjatlarni tahlil qilish metodlaridan biri

d) eksperimentning bir turi.

**9. Sotsiologiya dastlab qanday nom bilan atalgan?**

a) siyosiy arifmetika

b) tarixiy tahlil

s) sotsial falsafa

d) sotsial fizika

**10. Shaxs strukturasi asosiy elementlarini ko'rsating:**

a) bilim, madaniyat va faollik

b) xotira, madaniyat va faoliyat

s) dunyoqarash, xotira va madaniyat

d) madaniyat, bilim va dunyoqarash

**11. Sotsiologiya fani qaysi fan negizida shakllandi?**

a) psixologiya

b) matematika

s) psixologiya

d) falsafa

**12. Sotsiologik monitoring bu:**

a) birlamchi sotsiologik ma'lumotlarni yig'uvchi, tahlil qiluvchi va axborotlarni tarqatuvchi tizim

b) jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni o'rganuvchi, tahlil qiluvchi, yechimini va nazoratini ta'minlovchi tizim

- s) sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish, sotsiologik jarayonlar haqidagi axborotlardan doimiy foydalanishni ta'minlovchi tizim  
d) sotsiologik tadqiqotlarni doimiy kuzatuvchi, nazorat qiluvchi va baholovchi tizim

**13. XIX asr yarmida sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishining ob'ektiv sababini aytib bering?**

- a) texnika va ishlab chiqarishning taraqqiyoti  
b) insonning absolyut ozodlikka intilishi  
s) ijtimoiy tartibni tashkil etishning zaruriyligi  
d) ijtimoiy inqilob

**14. Individ xatti-harakati uchun etalon bo'lib xizmat qiladigan guruh – bu:**

- a) birlamchi guruh b) kvaziguruh s) referent guruh d) ideal guruh

**15. Sotsiologik tadqiqot dasturida gipoteza (faraz)ning turlarini ko'rsating:**

- a) namunaviy va ishchi b) pozitiv va negativ  
s) an'anaviy va zamonaviy d) ilmiy va ishchi

**16. Hujjatlarni o'rganish metodlarining turlarini aniqlang:**

- a) an'anaviy va zamonaviy b) an'anaviy va formallashtirilgan  
s) ierarxiyaviy va tarixiy d) umumiy va xususiy

**17. Sotsiometriya metodining asoschilarini aniqlang:**

- a) Kont va Spenser b) Gurvich va Moreno  
s) Dyurkgeym va Veber d) Veber va Zimmel

**18. Kvaziguruhlarga quyidagilardan qaysi biri kiradi?**

- a) jamoa b) elat va millat s) olomon d) urug' va qabila

**19. Sotsiologiya fani qachon va qaerda vujudga kelgan?**

- a) AQShda 19-asrda b) Sharqiy Yevropada 19-asrda  
s) Janubiy Amerikada 18-asrda d) G'arbiy Yevropada 19-asrda

**20. E. Dyurkgeym fikricha sotsial faktlarning asosiy xususiyatlari:**

- a) ob'ektiv mavjud, ochiq va moslashuvchan  
b) ob'ektiv mavjud, individdan mustaqil, individ xatti-harakatini boshqarish va ta'sir etish

- s) ochiqlik, o'zgaruvchanlik, moslashuvchanlik, funksional va rivojlanish

- d) ijtimoiylashuv, tartibni saqlash, ishlab chiqarish va qayta tiklash

**21. Ilk bor sotsiologik muammolar qaysi fan tizimida o'rganilgan?**

- a) biologiya b) iqtisodiyot s) tarix d) falsafa

**22. Kontent – analiz hujjatlarni tahlil qilish metodlarining qay biriga kiradi?**

- a) an'anaviy b) umumilmiy s) formallashtirilgan d) xususiy ilmiy

**23. Gipoteza sotsiologik tadqiqot dasturining qaysi qismida beriladi?**

- a) amaliy qismida b) nazariy qismida s) xulosa qismida d) kirish qismida

**24. Pilotaj tadqiqot empirik sotsiologik tadqiqotning qaysi bosqichida o'tkaziladi?**

- a) ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichida b) yakunlovchi bosqichda  
s) tayyorgarlik bosqichida d) asosiy amaliy bosqichda

**25. Monitoring atamasi ilk marotaba qaysi fanda qo'llanilgan?**

- a) huquqshunoslik b) kriminalistika s) ekologiya d) politologiya

**26. Shaxs manfaati turlarini aniqlang:**

- a) maqsadli, qadriyatli, an'anaviy va madaniy  
b) maqsadli-rasional, qadriyatli-rasional, affektiv va an'anaviy

s) munosabat, harakat, tayanch va yo'nalish

d) maqsadli, maqsadsiz, asosiy va ikkinchi darajali

**27. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga qaysi fanlar faol ta'sir ko'rsatgan?**

a) tabiatshunoslik fanlari                      b) aniq fanlar

s) ijtimoiy fanlar                                      d) gumanita fanlar

**28. Empirik sotsiologik tadqiqot qanday yakunlanadi?**

a) xulosalar ishlab chiqish                      b) xisobot tayyorlash

s) taklif va tavsiyalar berish                      d) natijalarni tahlil qilish

**29. Sotsial dinamika nimani o'rganadi?**

a) Jamiyatning o'sish, o'zgarish va rivojlanish qonunlarini

b) Jamiyat faoliyatining qonunlarini

s) Sotsial qonunlarning o'zaro aloqasini

d) Sotsial voqeelikning ustuvor yo'nalishlarini

**30. O.Kont "sotsiologiya" terminini ilk bora qaerda ishlatgan?**

a) "Pozitiv falsafa kursi" asrining 1-tomida

b) "Pozitiv falsafa kursi" asrining 2-tomida

s) "Pozitiv falsafa kursi" asrining 3-tomida

d) "Pozitiv falsafa kursi" asrining 4-tomida

**31. Sotsiologiyada G. Spenser qanday konsepsiyani yaratgan?**

a) formal sotsiologiya                              b) noorganik sotsiologiya

s) noformal sotsiologiya                              d) organik sotsiologiya

**32. Shaxsning ijtimoiylashuvi bosqichlarini aniqlang:**

a) sotsial integrasiya va differensiasiya

b) sotsial adaptasiya va sotsial interpretasiya

s) sotsial adaptasiya va sotsial interiorizasiya

d) sotsial integrasiya va modernizasiya

**33. Sotsiometriya metodi sotsiologiyaga qaysi fandan kirib kelgan?**

a) falsafa    b) etika    s) politologiya    d) psixologiya

**34. Sotsiologiyaning klassik rivojlanish bosqichi vakillarini aniqlang:**

a) O. Kont, Z. Freyd va P. Sorokin

b) O. Kont, E. Dyurkgeym va G. Spenser

s) O. Kont, M. Veber va G. Zimmel

d) O. Kont, T. Parsons va R. Merton

**35. M.Veberga ko'ra sotsial xatti-harakatlar turlari:**

a) maqsadli, qadriyatli, rasional va affektiv

b) maqsadli-rasional, deviant, an'anaviy va madaniy

s) maqsadli-rasional, qadriyatli-rasional, affektiv va an'anaviy

d) maqsadli-rasional, qadriyatli, madaniy va an'anaviy

**36. Ekspost – fakto birlamchi sotsiologik ma'lumotlarni to'plash metodlarining qaysi turiga kiradi?**

a) so'rov metodi

b) kuzatish metodi

d) tajriba metodi

d) hujjatlarni tahlil qilish metodi

**37. Ko'pincha iqtisodiy, diniy, siyosiy manfaatlar yuzasidan tuziladigan guruhlar qanday guruh turiga kiradi?**

a) autguruh

b) kvaziguruh

- s) birlamchi guruh                                      d) ikkilamchi guruh
- 38. Sotsiologik tadqiqot dasturi nimadan boshlanadi?**  
 a) maqsad va vazifani belgilash                      b) ob'ekt va predmetni tanlash  
 s) muammoni qo'yish                                      d) asosiy tushunchalarni ishlab chiqish
- 39. Kelib chiqishi rus, amerikalik sotsiolog nomini ko'rsating.**  
 a) I. Kon                      b) P. Sorokin                      s) T. Zaslavskaya                      d) V. Yadov
- 40. Sotsial xatti-harakat nazariyasi asoschisi...**  
 a) R. Merton                      b) M. Veber                      s) G. Zimmel                      d) G. Spenser
- 41. Sotsial tashkilotlarga sotsiologik yondashuvlarni aniqlang:**  
 a) regulyativ, relyasion va integrativ                      b) an'anaviy, rasional va zamonaviy  
 s) tabiiy, rasional va neorasonal                      d) tanqidiy, tabiiy va neorasonal

**42. Maks Veberning sotsiologiyasi qanday nomlanadi?**

- a) formal sotsiologiya                                      b) tushunuvchi sotsiologiya  
 s) pozitivistik sotsiologiya                                      d) psixologik sotsiologiya

**43. «Sotsial mobillik» terminini sotsiologiyaga kim kiritgan?**

- a) M. Veber                      b) P. Sorokin                      s) R. Merton                      d) T. Parsons

**44. Jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni o'rganuvchi nazariyani aniqlang:**

- a) sotsial mobillik                                      b) deviasiya  
 s) sotsial stratifikatsiya                                      d) sotsial interiorizatsiya

**Ogyust Kont (1798-1857).** Fransuz faylasufi, yangi fanga «sosiologiya» deb nom berdi. Kont pozitiv mohiyatga ega fandır. «Rozitiv usul» ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usul ma'lumotlarni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi.

O. Kont tomonidan 1839 yilda «Rozitiv falsafa kursi» asarining uchinchi tomi nashr etilganligi natij ilmiy asosda o'rganish sifatida sosiologiya terminini qo'lladi va bu sosiologiyaning shakllanishi va rivojla

Keyinchalik, sosiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy analiz qilishni sosial faktlarni empiril boruvchi mustaqil fanga aylandi. **O.Kont sosiologiyani 2 qismga ajratadi:**

#### **Sosial statika**

Sosial statikada ijtimoiy tizimlarning shart-sharoiti va funksional qonuniyatlari o ko'rsatadi. Unda ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din kabilar tadqiq etilad


#### **Sosial dinamika**

O.Kont ijtimoiy progress rivojlanishini nazarda tutib, u jamiyatning ma'naviy va a insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili deb qaraydi

[Angliyskiy naturalist](#) i [puteshestvennik](#), odnim iz pervix osoznan i naglyadno prodemonstiroval, chto vse jivie organizmi [evolyusioniruyut](#) vo vremeni ot obshix predkov. V svoey teorii, pervoe razvyornutoe izlozhenie kotoroy bilo opublikovano v [1859 godu](#) v knige «[Proisxojdenie vidov](#)» (polnoe nazvanie: «[Proisxojdenie vidov putyom yestestvennogo otbora, ili vijivanie blagopriyastvuemix porod v borbe za jizn](#)»), osnovnoy dvijuyemy siloy evolyusii Darwin nazval [estestvenniy otbor](#) i [neopredelyonnuyu izmenchivost](#).



Gerbert Spenser ([angl. Herbert Spencer](#); [27 april 1820](#),— [8 dekabr 1903](#))




Sosialnie instituti — eto mexanizmi samoorganizasii sovmestnoy jizni lyudey. Oni obespechivayut prevращenie asosialnogo po prirode cheloveka v sosialnoe sushchestvo, sposobnoe k sovmestnim deystviyam.

- *Domashnie instituti* — semya, brak, problemi vospitaniya.
- *Obryadovie (seremonialnie)* — prizvani regulirovat povsednevnoe povedenie lyudey, ustanavlivaya obichai, obryadi, etiket i t. d.
- *Politicheskie* — poyavlenie svyazano s perenosom vnutrigruppovix konfliktov na sferu konfliktov mejdu gruppami; v stanovlenii politicheskoy i klassovoy strukturi obshchestva reshayushuyu rol igrali konflikti i voyni (potrebnost oboroni ili zavoevaniya bolshe vsego splachivayut obshchestvo).




**G. Spenser (1820-1903)** ham O. Kont kabi ham keng ma'lumotga ega bo'lgan olim, o'z davrining buyuk aql egalaridan biri hisoblanadi. U falsafa, sosiologiya, psixologiya va boshqa fanlar bo'yicha qator ilmiy asarlar muallifidir. G. Spenserning asosiy asari «Sintetik falsafa tizimi» bo'lib, unda tabiiy va sosial voqealarning tarixiy rivojlanishi haqidagi chuqur qarashlarini bayon etgan. G. Spenser sosiologiyadagi organik maktabning asoschisi hisoblanadi. U o'zining organizmga oid nazariyasini va sosial evolyusiya tushunchasini «Ilmiy siyosiy va falsafiy tajribalar» asarida atroflicha bayon etgan.

**G. Spenser** jamiyatga tabiiy, eng avvalo biologik qonunlar asosida rivojlanuvchi organizm sifatida qaragan. U jamiyatni jonli biologik organizmga o'xshatadi.




### *Pinbord texnikasi*

(inglizchadan: pin – mahkamlash, board – doska) muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish kollektiv tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozisiyani shakllantirishga imkon beradi



O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai-nazarlarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi).



Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar (so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.




Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:



- (1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- (2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- (3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarni aniqlaydilar;
- (4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz varaqlaridagi) guruhlariga ajratadilar;
- (1) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: kollektivni pozisiyalari ishlab chiqiladi.


## **IV- MAVZU. JAMIYAT YAXLIT TIZIM SIFATIDA. A) MADANIYAT, DIN VA AXLOQ SOSIOLOGIYASI**

Madaniyat — insonlar faoliyat natijalarining majmui o'laroq o'zida ikki holatni, ya'ni **madaniy statikani** (madaniyatning nisbatan turg'un ko'rinishlari) va **madaniy dinamikani**, ya'ni madaniyatning o'zgaruvchan jihatini mujassamlashtiradi.



«**Sivilizasiya** (lot. fuqarolik, fuqarolikka oid, davlatga oid) degan maʼnolarni bildiradi. Bu tushunchani shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining maʼlum bir bosqichini ifodalash uchun ishlatgan boʻlsa, fransuz maʼrifatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyatga xos boʻlgan atama maʼnosida ishlatgan edilar.





#### Kichik guruxlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar vazifani bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnomaga berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

#### “3 \* 3 loyihasi” qoidasi

- Uchta guruh uchta fikr
- Guruhlarga uch xil savol yozilgan vatman qog'ozlari tarqatiladi.
- Har bir guruh o'z vatmaniga uchtadan javob yozadi.
- Javoblar qoladi guruhlar joy almashadi (3dan 1ga; 1dan 2ga; 2dan 3 ga)
- Xar stol almashganda uchtadan javob yoziladi.
- Oxirida jami 9 ta javob to'planadi
- Mustaqil ravishda har bir guruh umumiy ta'rifni keltiradi va javoblarni taqdimot qiladi

## **V-mavzu. Shaxs sosiologiyasi va deviant xulq atvor.**

**A) Shaxs, jamiyat va davlat sosiologiyasi.**

**B) Deviant xulq- atvor sosiologiyasi**

**Inson**- hamma uchun xos bo'lgan, tegishli bo'lgan umumiy tushuncha.

**Individ** - insoniyat zotining yakka vakili.

**Shaxs** - tarixiy sharoitdagi holatidan kelib chiqib ishlatiladi

**Falsafa** - shaxsni faoliyat sub'ekti, ong va ijodiyot sifatida tutgan o'rni, nuqtai-nazaridan qarab chiqadi.

**Ruhshunoslik** - shaxsni ruhiy jarayonlar, xususiyat, qobiliyat, iroda sifatleri va boshqa jihatlardan barqaror

**Sosiologik** - yondashuv shaxsning sosial-tipik jihatini ajratadi. Shaxs sosiologik nazariya-sining shakllanish jarayoni va uning ehtiyojlarini qondirish, sosial birlikda rivojlanishi va amalga oshirish aloqalari, shaxs va guruhlar, shaxsning sosial fe'l-atvorini, tartibga solish qonuniyliklarini o'rganish va chambarchas bog'langan.

## Инсоннинг икки хил эҳтиёжи мавжуд

**Tabiiy** – barcha biologik ehtiyojlar

**Ijtimoiy** – mehnat faoliyati, ijtimoiy f

## Shaxsning ijtimoiylashuv davri quyidagilar asosida kecha

- 1) **Bolalik:** - agentlar va ijtimoiylashuv turlari.
- 2) **Ota-onalik:**
  - otalar va bolalar: ikki dunyo;
  - «otalar va bolalar» munosabatlarining mutanosibligi.
- 3) **O'spirinlik:** - qadriyatlar parallel' tizimi.
- 4) **Balog'at yoshi:**
  - voyaga yetgan inson maqomining asosiy mezonlari;
  - voyaga yetganlar - shaxs ijtimoiylashuvining faol payti.
- 5) **Keksalik:**

## Shaxs ijtimoiy roli

### Belgilangan ijtimoiy mavqei

Bu shaxs xizmati va hatti-harakatidan qat'iy nazar, jamiyat tomonidan belgilab qo'yiladi. Shaxsning etnik kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, oilasi, jinsi va boshqalar.

### Erishilgan

Shaxsning o'z xatti-harakati, tushuniladi. Masalan, yozuvchi, professor va shu kabilar

## Lavozimiga ko'ra ikkiga ajratiladi

**Tabiiy lavozim** mavqei shaxsning erkak va ayol, bolalik, o'smirlilik, yoshlik, o'rta yosh, keksalik davrlarini bildirsa,

**Kasbiy lavozim** mavqei shaxsning kasbiy tayyarlilik darajasi, mahorat, bilim, ixtirachilik, ijodchilik, chiqarish - texnik holati (muhandislik, boshqalar)

## Shaxs ijtimoiylashuvining 2 fazasi mavjud:

**Sosial adaptasiya (moslashish)**. Bunda individning sosial sharoitlarga, funksiyalarga, sosial normalarga, sosial guruhlarga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishidir.

**Sosial interiorizatsiya**, ya'ni individning ichki dunyosiga sosial muhitga qorishib ketmay qolgan qismlar kiradi.

## Ehtiyojlarining ikki ko'rinish mavjud:

**Tabiiy ehtiyojlar** sifatida kishilarning kundalik ehtiyojlari: ovqat, kiyim, turar-joy va boshqalar tushuniladi.

**Sosial ehtiyojlar** esa odamning ijtimoiy ehtiyojlaridir. Tabiiy ehtiyojlar bilan birga, ijtimoiy ehtiyojlar ham paydo bo'ladi, rivojlanadi.



**Ijtimoiy sanksiya**  
(sanksiya - lot. qat'iy qaror ma'nosini bildiradi)

**Jismoniy sanksiya:**  
kaltaklash, ozodlikdan mahrum qilish, o'lim jazosi va boshqalar.

**Iqtisodiy sanksiya:**  
rag'batlantirish, ja


**Ramziy sanksiya:** xurmat bildirish, izzaq qilish, xayfsan

**Davlat va jamiyat faoliyatini nazorat qiluvchi ko'rsatkich**

Subornidasiya

Koordinasiya

Reordinasiya



## Hozirgi kunda jamiyatning quyidagi ko'rinishlari m

**Faravonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati:** – (ko'proq G'arbda: skandinaviya davlatlarini misol keltirish mumkin).

**Iste'mol qilish jamiyati**  
yillarda yuzaga kelganligi

**Ochiq va yopiq jamiyat.** Ochiq jamiyat - demokratik jamiyat bo'lib tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat. Yopiq jamiyat – dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehrli (magik) tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan xarakterlanadi.

**Industrial (sanoat) jamiyati**  
yillarida yuzaga keldi. B  
markscha ijtimoiy-iqti  
ta'limotlarga qarshi qaratil

## VI- MAVZU. JAMIYATNING SOSIAL STRUKTURASI VA STRATIFIKACION JARAYONLAR

### A) IJTIMOIIY STRATIFIKASIYA VA YOSHLAR SOSIOLOGIYASI.

**Stratifikasiya** (lot stratum - qatlam va fasio – bajaraman) - jamiyat tuzilmasi, alohida qatlamlari, ijtimoiy tabaqalanish belgilari tizimi va tengsizlikni ifoda etuvchi sosiologik tushunchadir.

**Stratifikasiya masalasi bo'yicha ikkita asosiy nazariy qarash sosiologiyada bu ma  
turtki bergan**

**Karl Marks (1818-1883)** Ishlab chiqarish munosabatlariga egalik qilishga qarab sinflarga ajratgan. Kapitalistlar ishchilar yoki proletariat sinfini doimo ekspluatasiya qilib kelgan.

Avvalgi formasiyalarda to'g'ridan-to'g'ri bo'lgan bo'lsa, kapitalizm davrida birmuncha yopiq holda bo'lgan. Masalan, ishchi bir kunda 8 soat ishlab, olgan ish haqi 5 soatlikni tashkil etgan.

**Maks Veber (1864-1920)** (1864-1920) qo'shilgan holda, quyida jamiyatning tabaqalanishi

1) **ustamonligi** ko'rsatadi. Bu esa, uning tabaqalashadi. Masalan, boshqaruvchi bo'lib ko'tar  
2) **status (mavqe)**,


**Jamiyatning ijtimoiy tarkibi quyidagi yo'nalishlarda o'rganiladi**

**Ijtimoiy, sinfiy, guruhlararo:** sinflar, ijtimoiy qatlamlar.


**Ijtimoiy demografik:** yoshlar, o'rta yoshlar, ayollar, erkaklar.

**Ijtimoiy etnik:** millatlar, xalqlar, elatlar, e


**Ijtimoiy professional:** kasb koriga qarab



**Sosial stratifikasiya** - Sosiologlar sosial harakatchanlikni stratalarga (qatlamlarga) bo'lingan jamiyatni biladilar va uni gorizental hamda vertikal harakatchanlikka ajratadilar.



**Gorizental** Kishilarning aynan bir tabaqa ichidagi harakatchanlikni bildiradi. Bu harakatchanlik turar joyini o'zgartirishi gorizental harakatchanlik hisoblanadi.



**Vertikal** harakatchanlik esa quyi tabaqalardan yuqori tabaqa harakatchanlikni bildiradi. Bu harakatchanlik qilingan harakatni bildiradi.

**Yoshlar sosiologiyasi doirasida yoshlar hayotini ilmiy-sosiologik  
o'rganishning asosiy yo'nalishlari**

1. Yoshlar muammosini o'rganishda tarixiy yondashish lozimligi. Yoshlarning ijtimoiy qarashlarini tadqiq etishda muayyan tarixiy davr, shart-sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqishi muhimdir. Masalan, hozirda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida yoshlarning ijtimoiy qarashlari muammolar avvalgi davr, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagiga nisbatan o'zgarib, yangicha mazmunga va xususiyatga ega bo'lgan.

2. Yoshlarning o'ziga xos turmush tarzini tahlil qilish va o'rganish. Bunda yoshlarning ijtimoiy hayotining uning rivojlanishini nazariy va empirik jihatdan o'rganish.

3. Yosh avlodni har jihatdan rivojlanib borishini tahlil qilish. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o'zgarishi oqibatida avlodlar o'rtasida doimo muayyan rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli, keksa avlod bilan yoshlar o'rtasida ziddiyat vujudga keladi. Ko'pincha, yoshlarning manfaat va qiziqishlari, faoliyati, tashqi dunyoga munosabati, norozilik, e'tiroz tug'diradi.

4. Yoshlarga tabaqaviy jihatdan yondashish. Bu metodologik tamoyil yoshlarni turli tabaqalarga ajratib o'rganishni bildiradi.

**VII-MAVZU: SOSIAL MUNOSABATLAR**  
**A) JAMIYATDAGI O'ZARO IJTIMOIIY ALOQADORLIK VA**  
**IJTIMOIIY TASHKILOTLAR**  
**B) IJTIMOIIY MUNOSABATLAR, IJTIMOIIY MAVQE, IJTIMOIIY**  
**SANKSIYA VA**  
**IJTIMOIIY ROL TUSHUNCHASI**

**Ijtimoiy munosabatlar sosiologiyasidagi muhim yo'nalishlar**

Iqtisod va taqsimot munosabatlari

Sosial – sinfiy munosabatlar

Sosial – demografik munosabatlar

Sosial – etnik munosabatlar

Sosial – hududiy munosabatlar

## Ijtimoiy munosabatlar turlari

**Birdamlik.** U sosial jipslashuvni bildiradigan tushuncha sifatida birinchi bo'lib O.Kont tomonidan kiritilgan.


**Kooperasiya-** ijtimoiy mulkka asoslangan bilan ishlab chiqarish vositalarini guruhlar bilan ishlab chiqarish vositalari ijtimoiy «ma'muriyat» xalqdan ajralib qoladi va boshqaruvchilar tashkiloti vujudga kelishi natijasida ishchilar o'z mehnatlaridan manfaat

E.Dyurkgeym uni ikkiga: **mexanik va organik** birdamlikka ajratadi.

**Mexanik birdamlik** – bu «jamoat turidagi» birdamlik bo'lib, u yoki bu jamoadagi individlarning o'xshashliklari bilan belgilanadi va ular tomonidan ijtimoiy vazifalar bir xil turda bajariladi.

Jamiyatda ijtimoiy mehnatning maxsus vazifalarni bajaradilar va jamoatdagi ijtimoiy mehnatning jonli organizmni eslatadi. Shu jamoatdagi birdamlikni E.Dyurkgeym ataydi.

## Begonalashuv muammosi va uning asosiy yo'nalishlari





## VIII-MAVZU: IJTIMOIIY TARAQQIYOT SOSIOLOGIYASI

### A) MAHALLA O'Z- O'ZINI BOSHQARUV SOSIOLOGIYASI.

### B) JAMOATCHILIK FIKRI SOSIOLOGIYASI





**O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida o'zini-o'zi boshqarish organlariga berilgan huquqiy ta'rif.**

«Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini-o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi».

**«Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunning (yangi taxriri) 1-moddasida o'zini-o'zi boshqarishning huquqiy tushunchasi tasnifi.**

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadi, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustakil faoliyatidir.

## Mahalla maqomini mustahkamlash sohasida qilingan ishlar

1. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishining qonuniy maqomi mustahkamlandi.

2. Ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi.

3. Mamlakatda shahar, posyolka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'ini o'zini-o'zi boshqarish organlari mustahkamlandi.

4. 9642 ta mahallalar mustaqil tashkilot sifatidan qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'rtasidagi obro' e'tiborini qaytadan tiklab oldilar.


## IX-MAVZU EMPIRIK SOSIOLOGIK TADQIQOT VA UNING METODLARI.

A) SOSIOLOGIK TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH USULLARI.

B) ANIQ SOSIOLOGIK TADQIQOTLARNING TURLARI.

V) SOSIOLOGIK TADQIQOTLAR NATIJALARINI TAHLIL QILISH VA UMUMLASHTIRISH

### Respondentlarni so'rash (so'rov) usuli



**Eksperiment (tajriba) – boshqariladagan va nazorat qilinadigan sharoitlar olishning umumilmiy usuli**

Tajriba usullari

Tabiy tajriba – kichik guruhlarda o'tkazilib, dala va laborooriya shaklida b

Fikriy (model) tajriba – statistik tahlil usullari mavjud bo'lgan har bir sosiologik tadqiqitda uchraydi. So EHM modellashtirishda fikriy tajriba asosiy hisoblanadi.

## **GLOSSARIY:**

### **SOTSIOLOGIYA FANINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA MUHIM ATAMALARI**

**Avtokratik harbiy boshqaruv** – o'z qo'lida butun hokimiyatni jamlagan harbiy yetakchining idora qilishi.

**Avtoritet** – boshqa insonlarning xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini boshqarish uchun berilgan, qonuniylashtirilgan huquq.

**Adaptasiya** – biologik organizmning muayyan sharoitda yashashga moslashish qobiliyati.

**Anomiya** – ijtimoiy me'yorlar individ xulq-atvorini belgilay olmaydigan vaziyat (E.Dyurkgeym tomonidan kiritilgan).

**An'analar** – o'tmishdan foydaliligi jihatidan insonlar qabul qiladigan, avloddan-avlodga o'tadigan madaniy norma va qadriyatlar, ko'nikmalar.

**Assimilyasiya** – ozchilikning ko'pchilik aholi ichiga singishib ketishi, bunda ozchilik aholi hukmron madaniyat me'yorlari va qadriyatlarini qabul qiladi.

**Barqarorlik** (ijtimoiy)– jamiyatdagi tinch-totuvlik va uni mustahkamlash uchun shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiyalar o'rtasidagi hamjihatlik vaziyati; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy kelishuv holatining muttasil davom etishi va h.k.

**Bilish** – tasavvur, tushuntirish va eslab qolishni qamrab oladigan tafakkur jarayoni.

**Birlamchi guruh** – bir-birlari bilan shaxsiy munosabatlarda bo'lgan individlar guruhi.

**Byurokratiya** – aniq hokimiyat ierarxiyasiga, amaldorlar xulq-atvorini belgilab beradigankorساتma va yo'riqnomalarga ega bo'lgan tashkilot tipi, amaldorlar shtati.

**Vertikal mobillik** – ijtimoiy stratifikatsiya tizimi ierarxiyasida yuqoriga va pastga qarab siljish.

**Gender** – erkaklar va ayollar uchun xos hisoblangan jihatlarni xulq-atvordan kutish.

**Globalashuv** – dunyodagi turli odalar, mintaqalar va mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning o'sishi.

**Gipoteza** (*yun.* hypothesis – asos) – o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shakli.

**Gorizontal mobillik** – individlarning mamlakat ichkarisidagi bir mintaqadan ikkinchisiga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatgao'tishi.

**Davlat** – muayyan hududda boshqaruvni amalga oshiradigan, huquqlari va kuch ishlatish imkoniyati qonuniy mustahkamlangan siyosiy apparat.

**Dasturlangan so'rov** – savol beruvchi tadqiqotchi va javob beruvchi tadqiq qilinuvchi o'rtasida tartibga solingan, dastur asotsidagi intervyu yoki anketali so'rov turi.

**Dasturlanmagan so'rov** – taklif etilgan mavzu bo'yicha suhbat, og'zaki yoki yozma bayonnoma shaklida kishilarning fikrini, nuqtai-nazarini, o'yini, etiqod va qarashlarini o'rganuvchi metod.

**Demokratiya** – fuqarolarga siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish va boshqaruv organlariga o'z vakillarini saylash imkonini beradigan siyosiy tizim.

**Deviyasiya** – guruh yoki jamiyatdagi ko'pchilik tomonidan qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlargi bo'ysunmaydigan xulq-atvor shakllari.

**Din** – muayyan hamjamiyat a'zolarining e'tiqodi bo'lib, o'z ichigv sig'inish va ehtirom bilan qaraladigan timsollar, shuningdek, marosimlarni qamrab oladi.

**Jamiyat** – muayyan hududda istiqomat qiluvchi, yagona siyosiy hokimiyatga itoat qiladigan va o'zlarini boshqa qo'shni guruhlardan farqlaydigan odamlar guruhi.

**Jamoaviy harakat** – muayyan joyda to'plangan ko'p miqdordagi odamlar tomonmdan o'z-o'zidan kelib chiqib bajariladigan harakatlar.

**Jamoatchilik fikri** – ommaning, aholi ko'pchilik qatlamining voqea-hodisalarga, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan munosabatini ifodalovchi fikrlari, g'oya, qarash va tasavvurlvri.

**Jamoatchilik fikri ob'ekti** – ijtimoiy borliqning, ob'ektiv voqelikning va ijtimoiy ongning, sub'ektiv voqelikning dolzarb, ahamiyatli, bahs-munozaraga olib keluvchi fakt, voqea-hodisa va jarayonlari.

**Jamoatchilik fikri sub'ekti** – jamoatchilik doirasida fikr uyg'ota olish qobiliyatiga ega bo'lgan fikr egasi va ifodalovchisi, guruhlar, jamoalar, millatlar, sinflar va h.k.

**Jamoatchilik fikrini xaspo'shlash (manipulyasiya)** – dolzarb muammolar bo'yicha aholi ongiga nisbatan biron-bir fikrni zo'rlab singdirish.

**Jinoyat** – hokimiyat tomonidan o'rnatilgan qonunlarni buzadigan har qanday xatti-harakat.

**Jins** – ayollar va erkaklarni bir-biridan ajratib turadigan biologik va anatomik xususiyatlar.

**Ideal tip** – voqelikdagi real mavjudligi shart bo'lmagan ijtimoiy ob'ektning asosiy belgilarini ta'kidlovchi konstruksiya.

**Ijtimoiy guruh** – har bir a'zosi boshqalariga nisbatan taqsimlangan kutinmalar asotsida ma'lum bir tarzda o'zaro xatti-harakat qiluvchi individlar yig'indisi.

**Ijtimoiy jarayon** – strukturaviy yoki funksional jihatdan bir-birni taqozo etuvchi ijtimoiy hodisalar turkumi.

**Ijtimoiy institut** – ma'lum bir hayot muhitida insonlarning o'zaro xatti-harakatlarini idora etuvchi va unda rol va statuslarni belgilovchi rasmiy va norasmiy qoidalar, tamoyillar, me'yorlar, o'rnashmalarning barqaror yig'indisi.

**Ijtimoiy me'yor** – ijtimoiy xatti-harakatni umumiy boshqarib turuvchi qatori sifatida namoyon bo'luvchi qoida.

**Ijtimoiy mobillik** – individlar va guruhlarning jamiyat tarkibida o'z o'rnini, mavqeini o'zgartirishi.

**Ijtimoiy nazorat** – ijtimoiy tizimning uni tashkil etuvchi elementlarining o'zaro xatti-harakatlarini normativ idora vositasida tartibga solishni ta'minlovchi o'zini-o'zi idora etish usuli.

**Ijtimoiy rol** – muayyan ijtimoiy pozisiyani egallab turgan individdan kutiladigan xulq-atvor.

**Ijtimoiy sanksiya** – ijtimoiy aktor xatti-harakatining ijtimoiy rollar talablari doirasida yon-atrofdagilar tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi yoki jazolanishi ko'rinishida namoyon bo'luvchi oqibati.

**Ijtimoiy stratifikatsiya** – moddiy va boshqa ne'matlarga erishish imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan jamiyatdagi guruhlar o'rtasidagi tuzilmalashgan tengsizlikning mavjudligi.

**Ijtimoiy fikr** – taraqqiyotning turli muammolari, xususiyatlari to'g'risida turli xil ijtimoiy guruh yoki qatlamlarga mansub kishilarning munosabatini o'rganish natijasida hosil qilingan tasavvurlar yig'indisi.

**Ijtimoiy o'zgarishlar** – ijtimoiy guruh yoki jamiyatning tayanch tuzilmalaridagi o'zgarishlar.

**Ijtimoiy qatlam** – ijtimoiy jihatdan bir xil bo'lmagan, jamiyatda alohida ijtimoiy guruhlar, ularning belgilanishi, sinfiy bo'linish ifodasi.

**Ijtimoiy harakat** – ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish yoki to'sqinlik qilish uchun jalb etilgan odamlarning katta guruhi.

**Ijtimoiylashuv** – individning ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayonda u shaxs sifatida shakllanadi.

**Ijtimoiylashuv agentlari** – ijtimoiylashuvning eng muhim jarayonlari yuz beradigan guruhlar yoki ijtimoiy kontekstlar.

**Ikkilamchi guruh** – bir-birlari bilan shaxsan tanish bo'lmagan individlar guruhi.

**Irqchilik** – muayyan jismoniy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlarga afzallik yoki kamsitilish tavsiflarini tirkash.

**Islahot** – mavjud ijtimoiy tuzum asoslariga putur yetkazmasdan ijtimoiy hayotning biron-bir sohasini o'zgartirish, har qanday yangilikni joriy etish.

**Ichkaridan kuzatish** – guruh yoki hamjamiyatlar faoliyatida sotsiologning o'zi ishtirok etishini nazarda tutuvchi tadqiqot usuli.

**Iqtisodiyot** – muayyan jamiyatlardagi individlarning moddiy ehtiyojlarini qoniqtirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va ayirboshlash tizimi.

**Korellyasiya** – ikki kattalik yoki o'zgaruvchanlik orasidagi statistik shaklda ifodalanadigan barqaror munosabat.

**Liderlik** – individ tomonidan guruh liderligiga xos layoqat va sifatlarning namoyon etilishi.

**Madaniy takror ishlab chiqarish** – madaniy qadriyatlarning avloddan avlodga o'tishi.

**Madaniyat** – jamiyat uchun xos bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar va moddiy ishlab chiqarish.

**Makrosotsiologiya** – katta ko'lamdagi guruhlar, tashkilotlar yoki ijtimoiy tizimlarni o'rganish.

**Manfaat** – individ yoki ijtimoiy guruhning u yoki bu ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq yo'nalganligi.

**Mafkura** – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istak va maqsad-muddaolari ifodalangan g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi.

**Mentalitet** (*lot.* mens – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati.

**Me'yorlar** – muayyan ijtimoiy birlik doirasida qabul qilingan xulq-atvor qoidalari.

**Mehnat taqsimoti** – ishlab chiqarish tizimini ixtisoslashgan vazifalar va kasblarga taqsimlash bo'lib, u umumiy iqtisodiy o'zaro bog'liqlikka olib keladi.

**Mikrosotsiologiya** – inson xulq-atvorini yuzma-yuz o'zaro ta'sir kontekstida o'rganish.

**Millat** – til, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash, ruhiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asotsida muayyan hududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil sub'ekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi.

**Milliy mentalitet** – milliy ong va faoliyat xarakterini ifodalovchi tushuncha, millatning an'analari, madaniyati, ijtimoiy strukturasi va turmush tarzi asotsida shakllanadi..

**Nazariya** – muntazam kuzatiladigan hodisalar o'rtasidagi umumiy tavsiflar va qonuniyatlarni aniqlashga urinish.

**Nizo** – jamiyatdagi guruhlar yoki individlar o'rtasidagi antagonizm.

**Nikoh** – individlar orasidagi jamiyat tomonidan ma'qullanadigan seksual munosabatlar.

**Noformal munosabatlar** – gurhlar yoki tashkilotlardagi shaxsiy mayllar asotsida shakllanadigan munosabatlar.

**Oila** – qon-qarindoshlik, nikoh yoki farzandlikka olish munosabatlari bilan bog'langan individlar guruhi.

**Ob'ekt** (lot. object – narsa) – sub'ektning bilish va amaliy faoliyatida unga qarama-qarshi turadigan narsa.

**Ob'ektiv reallik** – inson ongiga bog'liq bo'liagan, undan tashqaridagi moddiy olam.

**Olomon** – qiziqishlarining umumiylikiga ko'ra yopiq makonda vaqtinchalik to'plangan insonlar yig'indisi.

**Ommaviy axborot vositalari** – radio, televidenie, gazeta, jurnal va shu kabi katta auditoriyalarga mo'ljallangan kommunikasiya turlari.

**Organik guruhlash** – asoslarini izohlash mumkin bo'lgan guruhlashning kuzatuv birliklarini guruhlash turi.

**Patriarxat** – erkaklarning ayollar ustidan hukmronligi.

**Postindustrial jamiyat** – moddiy tovarlar ishlab chiqarishdan ko'ra ko'proq axborot ishlab chiqarishga tayanadigan jamiyat.

**Predmet** – inson faoliyati va bilish jarayonida ob'ektlar dunyosidan ajratib qaralgan ma'lum bir yaxlitlikni ifodalovchi tushuncha.

**Prestij** – individ yoki guruhning mavqeiga asosan ko'rsatiladigan hurmat.

**Prinsip** – turli ahamiyatga ega bo'lgan faktlar va bilimlar majmuining asotsi, poydevori, har qanday xatti-harakat, xulq-atvor va faoliyatning boshlang'ich qoidalari.

**Prognoz** – biror bir hodisaning kelajakdagi holati haqidagi ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ehtimoliy mulohaza.

**Propaganda** (lot. yoyish, tarqatish) – keng ma'noda: ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib etishdir; tor ma'noda: mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyatdir.

**Sanksiya** – rag'batlantirish yoki jazolash turlari bo'lib, ular yordamida ijtimoiy maqbul bo'lgan xulq-atvor me'yorlari mustahkamlanadi.



**Sekulyarizasiya** – jamiyat hayotiga diniy ta'sirning kamayib borish jarayoni.

**Siyosat** – hokimiyat hukumat faoliyati mazmuni va mohiyatiga ta'sir o'tkazish uchun qo'llaydigan vositalar.

**Siyosiy partiyalar** – davlat hokimiyatiga erishish va bu hokimiyatdan muayyan dasturni bajarish uchun foydalanishni maqsad qilib qo'ygan tashkilot.

**Sotsial darvinizm** – ijtimoiy evolyusiyaga qarash bo'lib, guruhlar va jamiyatlar o'rtasidagi kurash taraqqiyot manbai ekanini ta'kidlaydi.

**Sotsiologiya** – jamiyatning strukturasi, uning elementlari va mavjud bo'lishi shart-sharoitlarini, shuningdek ushbu strukturada amalga oshadigan ijtimoiy jarayonlarni o'rganuvchi fan.

**Status** – muayyan individlar guruhining jamiyatdagi boshqa a'zolarga nisbatan ko'proq e'tirofqa yoki prestijga ega bo'lishi.

**Struktura** (*lot.* structura – tuzilish) – sistemaning tuzilishi va ichki formasi, mazkur sistema elementlari o'rtasidagi barqaror o'zaro aloqalarning birligini ifodalovchi tushuncha.

**Strukturalizm** – tilni o'rganishda vujudga kelgan, ijtimoiy va madaniy tizimlarning tuzilmasini aniqlashga qaratilgan nazariy yondashuv.

**Sub'ekt** (*lot.* subjectus – asotsiga qo'ymoq) – amaliy faoliyat va bilim bilan bog'liq bo'lgan, ob'ektni bilishga qaratilgan faollik manbai.

**Tavsiflash** – ifodalashning tanlangan tizimi yordamida tajribaga asoslangan sotsiologik tadqiqotlar natijalarini qayd etish va bu natijalarni fan tushunchasida ifodalashdir.

**Tashkilot** – hokimiyat munosabatlarining alohida turkumiga jalb etilgan individlarning katta guruhi.

**Tafakkur** – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks ettiradigan bilishning rasional bosqichi.

**Tashqi kuzatish** – tadqiqot ob'ektini o'ziga xosligi jihatidan sezdirmay anglangan va anglanmagan, tasodifiy yoki rejali shakllarda amalga oshiriladigan kuzatish turi.

**Tizim** – o'zaro munosabat va aloqada bo'lgan, muayyan yaxlitlikni hosil qiluvchi ko'p qismlar majmui.

**Totalitarizm** – siyosiy boshqaruv shakli, unda butun hokimiyat uning siyosatidan norozi bo'lganlarni terror qiluvchi, o'zining sodiq odamlariga tayanuvchi diktator qo'lida jamlanadi.

**Turmush tarzi** – ijtimoiy guruhlar, elat, halq, millatlarning kundalik hayotini ifodalovchi tushuncha.

**Tushunish** – ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalar haqida tasavvur, tushuncha, hukmlar hosil qilish va ularni ongdagi mavjud bilimlar bilan bog'lashdan iborat aqliy jarayon.

**Tushuncha** – narsa va hodisalarning umumiy muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli.

**Umumlashtirish** – narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgi va xususiyatlarini, bog'lanishlarini fikran muayyan tushunishga birlashtirish jarayoni va uning natijasi.

**Faraz** – empirik tadqiqotning asotsi sifatida olg'a surilayotgan g'oya yoki taxmin.

**Fenomen** (*yun.* phainomenon – yuz beruvchi) – 1) ko'zga ko'rinib turgan hol; 2) noyob, kam uchraydigan hol, yoki buyuk, yagona bo'lgan inson; 3) hissiy bilish, tajribada berilgan ma'lum bmr holni anglatuvchi atama.

**Formal munosabatlar** – guruh va tashkilotlarda “rasmiy” hokimiyat tizimi me'yor va qoidalariga mos ravishda o'rnatilgan munosabatlar.

**Funksiya** (*lot.* functia – amalga oshirish, bajarish) – faoliyat, ba'zi sistemalar doirasidagi ob'ektning unga mansubligi va roli; ob'ektlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishi bo'lib birining o'zgarishi ikkinchisining ham o'zgarishiga olib keladi, bunda ikkinchi ob'ekt dastlabkisining funksiyasi deyiladi.

**Fuqarolik jamiyati** – mazkur mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o'z ixtiyori asotsida qurishga to'la erkinlikni kafolatlovchi ma'lum ijtimoiy tizim.

**Xalq** – lug'aviy ma'noda el, elat, millat, aholi, xaloyiq, bir guruh kishilar ma'nolarini anglatish uchun qo'llaniladigan tushuncha.

**Xususiyat** – predmet va hodisalarning boshqa predmet va hodisalardan farqini yoki ular bilan umumiylikni ifodalovchi kategoriya.

**Shaxs** – alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ.

**Evolyusiya** – biologik organizmlarning atrof-muhit sharoitiga moslashish yo'li bilan rivojlanishi.

**Eklektik guruhlash** – funksional va sababiy izohlash mumkmn bo'lmagan guruhlash turi.

**Elita** (*fr.* elite – eng sara) – har qanday ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv, madaniyat va fanni rivojlantirish funksiyalarini amalga oshiruvchi oliy, imtiyozli qatlami.

**Empirik tadqiqotlar** – sotsiologiyaning har bir sohasida o'tkaziladigan faktologik tadqiqotlar.

**E'tiqod** – (ishonch, iymon) – muayyan maqsad, qadriyatga ishonch, shu asosda shakllangan tafakkur.

**Ehtiyoj** – inson talablari asotsida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog'liq ekanligini ifoda etuvchi holat.

**O'z-o'zini bilish** – ijtimoiy tadqiqotlar jarayonida odamlarning o'z xatti-harakatlari sharoitlari va vaziyatlarini tushunishi va anglashining o'sishi, bu vaziyatni o'zgartirishga imkon yaratadi.

**Qadriyatlar** – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-ahloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha; individ yoki guruhlarining nima yaxshi va nima ma'qul emasligi to'g'risidagi tasavvurlari.

**Qonun** – sotsiologiyada: siyosiy hokimiyat tomonidan belgilangan va davlat qudrati bilan qo'llab-quvvatlanadigan xulq-atvor qoidalari.

**Qo'shib kuzatish** – tadqiqotchining uzoq vaqt davomida ob'ekt bilan sotsial muhit tarkibiga kirib, uni muntazam tarzda kuzatishi.

**G'oya** – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr.

**Haqiqat** – inson ongida voqelikning to'g'ri, haqqoniy aks etishini ifodalaydigan tushuncha.

**Hisobot** – tajribaga asoslangan ijtimoiy tadqiqotlar yakunini chiqarishning yozma shakli.

**Hokimiyat** – alohida individlar yoki guruh a'zolarining muayyan maqsadlarga erishish va ianfaatlarini ro'yobga chiqarish layoqati.

## **Mustaqil ta'limni tashkil etish shakli va mazmuni**

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabani berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- fanga oid statistik ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

«Sotsiologiya» fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, ma'ruza, ma'ruza tayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish va boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzularini to'ldirishga harakat qilinishi lozim.

### **Mustaqil ish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Cosiologiyani mustaqil fan sifatida shakllanish bosqichlari.
2. Sharq mutafakkirlarining (Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn-Sino, va boshqalar) ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
3. Cosiologiyani fan sifatida shakllanishida mumtoz olimlar ta'limoti (O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym, M.Veber).
4. Hozirgi zamon sotsiologiyasidagi asosiy yo'nalishlar.
5. Sobiq Sovet Ittifoqi jamiyatida sotsiologiyaga bo'lgan munosabat va uning oqibatlari.
6. Cosiologiyani ijtimoiy–gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'liqligi
7. Jamiyat va uning asosiy shakllari.
8. O'zbekistonda jamiyat hayotini erkinlashtirish.
9. Sotsial guruhlar va ularning jamiyat hayotida o'rni.
10. Sotsial guruh turlari.
11. Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi.
12. Sotsial institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, ta'lim, huquq.
13. Din sotsiomadaniy institut sifatida.
14. Zamonaviy jamiyatda din va davlatning o'zaro munosabati.
15. Oila ijtimoiy institut sifatida.

16. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi va uning asosiy yo'nalishlari.
17. Shaxs sotsial munosabatlar mahsuli sifatida.
18. Shaxs sotsializatsiyasi (ijtimoiylashuvi) va bosqichlari.
19. Shaxs to'g'risidagi sotsiologik nazariyalar.
20. Deviant xulq-atvor (og'ma xulq-atvor) muammosini o'rganish sotsiologiyadagi ilmiy yo'nalish sifatida.
21. Deviant xulq-atvor turlari.
22. E.Dyurkgeym, R.Mertonlarning deviant xulq-atvor to'g'risidagi nazariyalari,
23. Deviant, delinkvent va kriminal xatti-harakatlar.
24. Jamoatchilik fikri sotsial nazoratning shakli sifatida.
25. Sotsial nazorat kishilar hatti-harakatini tartibga solish mexanizmi sifatida.
26. Sotsial nazorat elementlari: me'yorlar va sanksiyalar.
27. P.A. Sorokinning sotsial stratifikatsiya to'g'risidagi nazariyasi.
28. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holat, mavqe, ta'lim va hokimiyat.
29. Stratifikatsion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar.
- 12
30. "O'rta sinf"ning jamiyat hayotidagi o'rni.
31. Zamonaviy O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik masalalari tahlili.
32. Sotsial harakatchanlik (mobillik) tushunchasi va uning mohiyati.
33. Sotsial harakatchanlik (mobillik) to'g'risidagi sotsiologiya klassiklari: M.Veber, E.Giddens, T.Parsons, P.Sorokin va boshqalarning qarashlari.
34. P.Sorokinning ijtimoiy stratifikatsiya konsepsiyasi.
35. M.Veber sinflar, statuslar, partiyalar xaqida.
36. Sotsial munosabatlar tushunchasi, strukturasi, mohiyati.
37. Barqarorlikni strukturaviy-funksional asoslash.
38. Begonalashuv va tanazzul.
39. Ijtimoiy progress, regress, evolyusiyasi va revolyusiyasi ijtimoiy o'zgarishlarning shakli sifatida.
40. Ijtimoiy progress muammolari.
41. Ijtimoiy taraqqiyot shakllari: evolyusion, revolyusion va reformistik taraqqiyotlar.
42. Empirik sotsiologik tadqiqotlar.
43. Sotsiologik tadqiqot dasturi.
44. Sotsiologiyada ma'lumotlarni to'plash metodlari.
45. So'rov metodi va uning turlari.
46. Kuzatish metodi va uning mohiyati.
47. Hujjatlarni o'rganish metodi.
48. Eksperiment metodi.
49. Sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil etish usullari.
50. O'zbekistonda empirik sotsiologik tadqiqotlarning istiqbollari

## FOYDALANILADIGAN MANBALAR RO'YXATI:

### Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi . – Toshkent “O'zbekiston” 2011 yil
2. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-18- jildlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1996-2010.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Toshkent, 2010.
6. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent, 2010.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.2010 yil
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011 yil.
9. Karimov I.A. Tarihiy hotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: O'zbekiston, 2012.
10. Karimov I.A. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq // Xalq so'zi 2012 yil 18 fevral.

### Darslik va o'quv qo'llanmalar

14. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 1994.
15. Begmatov A. Sotsiologiyaga kirish. – Andijon, 1995.
16. Yunusov K. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Andijon, 1997.
17. Umumiy sotsiologiya (Aliqoriev N.S. va Ubaydullaeva R.T. taxriri ostida) Toshkent 1999 yil
18. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Toshkent, 2000.
19. Kravchenko A.I. Sotsiologiya. – M.: 2001.
20. Ubaydullaeva B., Otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. “Ijtimoiy fikr” Markazi. – Toshkent, 2001.
21. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. Aliqoriev N.S., Bekmurodov M.B., Otamirzaev O.B. va boshq. – Toshkent 2001 yil.
22. Osipov G.V. Sotsiologiya. Osnovi obshchey teorii. Uchebnik dlya vuzov. – M.: Norma, 2002.
23. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Meros, 2002.
24. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent, 2002.

- 25.Sotsiologiya // O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Otamirzaev O.B. va boshq. – Toshkent A.Qodiriy nomidagi halq merosi. 2002 yil.
- 26.Farfiev B.A., Nurullaeva U.N. Sotsiologiya tarixi. T.Universitet 2009 y.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 34.Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. – Toshkent. A.Qodiriy nomidagi nashriyot. 1993 yil
- 35.Veber M. Izbrannie proizvedeniya. – M., 1990.
- 36.Ganieva M.X. Etnosotsiologiya. Uchebnoe posobie dlya stud. visshix uchebnix zavedeniy. – Tashkent Universitet, 2006. .
- 37.Garadja V.I. Sotsiologiya religii. – M., 2005.
- 38.Kravchenko A.I. Sotsiologiya. – M., 2006
- 39.Qodirov A.Q. Sotsiologiya – Toshkent 2006.
- 40.Abduraxmonov F.R., Saidxodjaev X.B. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. – Toshkent: O'zRIIVA, 2000.
- 41.Baginin V.A. Sotsiologiya: Ensiklopedicheskiy slovar. – M.: Mixaylova V.A., 2005.
- 42.Giddings E. Sotsiologiya. – Toshkent: Sharq, 2002.
- 43.Dolgorukov A.M. Praktikum po obshchey sotsiologii. – M., 2006.
- 44.Jalilov Sh. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
- 45.Yemshina P.S., Mutagirova D.Z., Skvorsov N.T. Sotsiologiya. – M.: Piter, 2004.
- 46.Kandaurov V.I., Stradanchenkov A.S. Sotsiologiya. Kurs leksiy. – M.: Infram, 2001.
- 47.Kachanov Yu. Nachalo sotsiologii. – M.: Dikta, 2005.
- 48.Mullajanova M.M. va boshq. Sotsiologiya fanidan ma'ruzalar matnlari. – Toshkent: ToshDIU, 2003.
- 49.Nosirxo'jaev S., Bekmurodov M., Sultonov T., Nosirho'jaeva H. Sotsiologiya asoslari. Ma'ruzalar matni. – Toshkent: Nizomiy nom. TDPU, 2000.
- 50.Otamurodov S., Otamurodov Sarvar. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
- 51.Ris Yu.I., Stepanov V.E. Sotsiologiya. Uchebnik. – M.: Dashkov i K., 2006.
- 52.Umarova R., Sarkisov B. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2004.
- 53.Frolov A.N. Sotsiologiya. – M.: Logos, 1996.
- 54.Xellevik O. Sotsiologicheskiy metod. – M.: Ves mir, 2005.
- 55.Xolbekov A. Sharq va G'arb mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti. – Toshkent, 1996.
- 56.Xolbekov A., Idivov U. Sotsiologiya:izohli lug'at-ma'lumotnoma. – Toshkent: Ibn Sino nashr., 1999.
- 57.Farfiev B.A. O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish jarayonida tafakkur tarzini takomillashtirishning ijtimoiy madaniy xususiyatlari: Dis....sotsiol.fan.nom. – Toshkent 1999 yil
- 58.Kalonov K.K. O'zbekiston o'zini o'zi boshqaruv tizimi dinamikasi taxlil qilishda avtoritetning o'rni. Dis....sotsiol.fan.nom. – Toshkent 2000 yil

59. Yunusov A.B. O'smir yoshlarda ijtimoiy deviantlik xolatlarining sotsiologik xususiyatlari. Dis....sotsiol.fan.nom. – Toshkent 2004 yil
60. Shikun A.I. Sotsiologiya. Uchebnoe posobie. – M.: Dikta, 2005.
61. Qurbonov Sh., Majidov I., Qo'chqorov R. Oliy ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarini tayyorlash. – Toshkent: Akademiya, 2002.
62. Xolbekov A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi (o'quv qo'llanma) – Toshkent: Akademiya 2007.
63. Saidxodjaev N.V. Sotsiologiya ma'ruzalar kursi.- Toshkent Akademiya, 2008.
64. Sotsiologiya// Uchebnoe posobie. Pod redak. d.f.n. Muxamedovoy Z.M. Toshkent. San'at, 2010.
65. Latipova N.M. Politicheskaya sotsiologiya. Metodicheskoe posobie, - Tashkent 2010.
66. Ganieva M.X. Vvedenie v sotsialnuyu rabotu. Tashkent. 2011.

### **Xorijiymanbalar**

1. sociology. (n.d.). The American Heritage Science Dictionary. Retrieved July 13, 2013, from Dictionary.com website: <http://dictionary.reference.com/browse/sociology>
2. Ashley D, Orenstein DM (2005). *Sociological theory: Classical statements (6th ed.)*. Boston, Massachusetts, USA: Pearson Education. pp. 3-5, 32-36.
3. Ashley D, Orenstein DM (2005). *Sociological theory: Classical statements (6th ed.)*. Boston, Massachusetts, USA: Pearson Education. pp. 3-5, 38-40.
4. Warren E. Gates (July-September 1967). "The Spread of Ibn Khaldun's Ideas on Climate and Culture". *Journal of the History of Ideas (University of Pennsylvania Press)* 28(3): 415-422 [415]. [doi: 10.2307/2708627](https://doi.org/10.2307/2708627). JSTOR 2708627.
5. *A Dictionary of Sociology*, Article: Comte, Auguste
6. Perrin, Robert G. (1995). "Emile Durkheim's Division of Labor and the Shadow of Herbert Spencer". *Sociological Quarterly* 36 (4): 791-808. [doi: 10.1111/i.1533-8525.1995.tb00465.x](https://doi.org/10.1111/i.1533-8525.1995.tb00465.x).
7. Kaern, Phillips & Cohen. (1990) *Georg Simmel and Contemporary Sociology*. Springer Publishing. [ISBN 978-0-7923-0407-4](https://doi.org/10.1007/978-0-7923-0407-4). p15.
8. Berger, Peter L. *The Sacred Canopy: Elements of a Sociological Theory of Religion* (1967). Anchor Books 1990 paperback: [ISBN 0-38507305-4](https://doi.org/10.1007/978-0-38507305-4)
9. Veber M. Izbranno'eproizvedeniya. -M.: Progress, 1999.
10. Garadja V.I. Sotsiologiyareligii. -M., 2005.
11. Kravchenko A.I. Sotsiologiya. -M., 2006.
12. Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya. Slovar. -M. :Progress, 2008.
13. Sotsiologiyareligii. V.I. Garadja. -M., 2005.
14. Mixaylovskiy V. N., Xon G. N. Dialektika formirovaniya sovremennoy nauchnoy kartiny mira. M., 1989.
15. Nauchnaya kartina mira: obhekulturnoe ivnutrinauchno efunkcionirovanie. Sverdlovsk, 1985.
16. Stepin V. S. Filosofskaya antropologiya i filosofiyanauki. M., 1992.



17. Stepin V. S, Kuznetsova L. F. Nauchnaya kartina mira v culture texnogennoyt sivilizatsii. M., 1994.
18. Alekseev A.P. Argumentatsiya. Poznanie. Obobhenie.—M., 1991.
19. Voyshvillo E.K. Simvolicheskaya logika: klassicheskaya i relevantnaya.- M.: Izd-vo MGU, 1989.
20. Voyshvillo E.K. Ponyatie kak formamo'shleniya.-M.: Izd-vo MGU, 1989.
21. Gryadovoy V.N. Logika. Strukturirovanno 'yuchebnik.-M. ,2003.
22. Ivin A.A. Logika.-M., 2003.
23. Ivlev Yu.V. Logika. Uchebnik dlyavuzov. -M.: Logos, 1998.
24. Kurbatov V.I. Logika.- Rostov-na-Donu. Feniks, 1997.
25. Logiko-gnoseologicheskiei deimisliteley Sredney Azii.-T. :Fan, 1981.
26. Logika i kompyuter. Modelirovanie rassujdeniyi proverka pravilnosti programm. -M.: Nauka, 1990.
27. Markin V.I. Sillogisticheskie teorii v sovremennoy logike.-M, Izd-vo MGU, 1991.

### **Annotatsiyalar**

XVIII asrda kishilik jamiyati, uning qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil fan sifatida tarix falsafa tarkibida shakllandi. Ijtimoiy hayotning murakkab lashuvchi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi Sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo'ydi.

XIX asrgacha sotsiologiya falsafaning tarkibiy bir qismi bo'lib keldi.

XIX asr boshlaridan esa Sotsiologiya o'ziga xos ilmiy metodlarga ega bo'lib, falsafadan ajralib chiqish imkoniga ega bo'la boshladi. Sotsial Sistema taraqqiyoti va

faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari haqidagi mustaqil fan sifatida XIX asrning 30-yillarida ilmiy muomalaga «Sotsiologiya» atamasi kiritilgandan so'ng shakllandi. Jamiyat haqidagi «pozitiv fan» (haqiqiy fan) yaratishga urinish XIX asr o'rtalarida yuzaga keldi. Sotsiologiyani soschisi fransuz mutafakkiri O. Kont Sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi, E. Dyurkgeym esa sotsial dalillar haqidagi fan deb ataydi.

Hozirgi adabiyotlarda Sotsiologiyaga quyidagicha tariff berilgan:

Sotsiologiya – yaxlit ijtimoiy tuzum sifatida jamiyat haqidagi va uning ayrim tarkibiy elementlari (shaxslar, ijtimoiy birliklar, institutlar) orqali bu tuzumning amal qilishi va rivojlanishi to'g'risidagi fandır. Ob'ekti jamiyat hisoblansa-da, Sotsiologiya fanining dastlabki bosqichi sifatida jamiyat tushunchasini ajratib ko'rsatish yetarli emas.

Sotsiologiya jamiyat haqidagi umumiy fan bo'libgina qolmay, balki maxsus sohalararo fan hamdir. U boshqa fanlar o'rganmaydigan o'z ob'ektiga ega. Uning o'ziga xos sohasi sotsial reallik bo'lib, u inson va jamiyat munosabatining ijtimoiy-madaniy muayyanligidir. Shu boisdan ham jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy hamkorliklar, ijtimoiy munosabatlar va ularning o'zaro tashkil etilish usullari Sotsiologiyani ob'ekti bo'ladi. Insonlar o'zaro aloqalarga hamkorlik munosabatlariga kirishishlari orqaligina muayyan ijtimoiy xususiyatlarni namoyon etish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Sotsiologiya ijtimoiy muhitni tadqiq etganda umummilliy tushuncha va kategoriyalardan kelib chiqadi. Xususan, ob'ektiv va subektiv, erkinlik va zaruriyat, borliq va ong kabi falsafiy kategoriyalardan foydalanib, sotsiologik ob'ekt mohiyatni talqin etadi. Sotsiologiya sotsial ob'ektni sotsial subektlar orqali (shaxs, guruh, jamiyat, sotsial sohalar, munosabatlar, odamlarning sotsial faoliyat iva tafakkur tarzi) tahlil qiladi. Sotsiologiya turli sotsial sohalarini tadqiq etish asosida ularning o'ziga xos ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlaydi. Muayyan sotsial guruhlar tahlil iva tasnifi orqali u jamiyat va inson to'g'risidagi umumiy qarashlar, qonunlar va tendensiyalarni yaratadi, rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

Sotsiologiya o'z ob'ekti doirasida sotsial hayotning turli, alohida tomonlari bilan ham shug'ullanad iva buning natijasida fanda integral sohalar vujudga keladi. Jumladan, huquq sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, iqtisodiyot sotsiologiyasi, industrial sotsiologiyalar. Sotsiologiya bu sohalarda o'z ob'ekti- inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalaridagi o'rni va rivojlanishi, hayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni hal qiladi. Sotsiologiya o'zining maxsus ob'ekti asosida yakka shaxs faoliyati konkret namoyon bo'lishini empirik darajada o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Hurmatli talaba sotsiologiya fanini o'zlashtirish uchun quyidagi bilimlarni o'zlashtirish muhim ahamiyatga egadir:

Sotsiologiya – shaxsga ijtimoiy hayot qonuniyatlari orqali ijtimoiy muhitga ko'nikma hosil qilishga (adaptatsiya) ko'maklashadigan, shular bilan bir qatorda insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos, eng qulay variantini topishda va uni amalga oshirishdagi jismoniy, emotsional-psihologik va manaviy imkoniyatlarini ishga soladi. Chunki hayot bor ekan, inson bor ekan, har qaysi toifa o'zining manfaatlarini qandaydir yo'llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila

qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin, degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo'lsa, qonuniy o'larbilano'z maqsadlariga erishishga intiladi.

Sotsiologiyaning vazifasi jamiyat taraqqiyotini taminlaydigan eng qulay variantlarni, ijtimoiy-madaniy modellarni topishdan iborat. Bular jamiyat va insonning o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan qonuniyatlardir. Sotsiologiyaning vazifasi murakkab sotsial dunyoni tashkil etuvchi o'zaro birikuvchi va harakat qiluvchi tuzilma va mexanizmlar mohiyatini aniqlashdan hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdan iborat. Shunday qilib, Sotsiologiya tarixi yaniiq ijtimoiy tizimlar amal qilishining sotsial umumiy qonun va qonuniyatlari haqidagi, ushbu qonun va qonuniyatlarning shaxslar, ijtimoiy guruhlar, birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatida nomoyon bo'lishi va tasir ko'rsatishda haqidagi fandir.

Sotsiologiya ijtimoiy hayotni u yoki bu shaklda va sohada o'rganar ekan, u avvalo sotsial voqelik haqidagi bilimlarni shakllantirish, sotsial rivojlanish jarayonlarini tasvirlash, tushuntirish, o'zining asosiy metodologiyasini va sotsiologik tadqiqot metodlarini ishlab chiqish kabi ilmiy muammolarni hal etadi.

Sotsiologiyaning jamiya thayoti bilan xilma-xil aloqasi, uning ijtimoiy burchi birinchi navbatda u bajarayotgan funksiyalar bilan aniqlanadi. Har qanday fanlar kabi sotsiologiyaning eng asosiy funksiyalaridan biri nazariy va amaliyotning birligidir.

Sotsiologik tadqiqotlarning ko'pchilik qismi amaliy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan. Sotsiologiyaning amaliy yo'naltirilganligi shunda nomoyon bo'ladiki, u ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish mayllari haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotni ishlab chiqishga qodir. Mana shunda uning oldindan aytib berish funksiyasi namoyon bo'ladi. Jamiyat hayotida sotsiologik tadqiqotlardan ijtimoiy hayotning turli sohalarini rivojlantirishni rejalashtirishda foydalanish katta ahamiyatga ega. Sotsial rejalashtirish ijtimoiy tizim qanday bo'lishdan qati nazar hamma mamlakatlarda rivojlangan.

## **FOYDALI MASLAHATLAR**

### **Internet ma'lumotlari:**

1. [http: www.lib.socio.msu.ru](http://www.lib.socio.msu.ru)
2. [http: www.socioline.ru](http://www.socioline.ru)
3. [http: www.socio.rin.ru](http://www.socio.rin.ru)
4. [http: www.sociologos.narod.ru](http://www.sociologos.narod.ru)
5. [http: www.socionet.narod.ru](http://www.socionet.narod.ru)
6. [http: www.sociograd.ru](http://www.sociograd.ru)

## ME'YORIY HUIJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston" 2013 y.
2. I.Karimovning —Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q - asaridagi tarix faninirivojlantirish borasidagi kontseptual g`oyalarining ahamiyati
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2011
6. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" - 29 avgust 1997-yil
7. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni Toshkent Sharq 2001-yil. Oily ta'lim meyoriy hujjatlari 3-18 betlar
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi oshirish to'g'risida"gi Qarori.
9. O'zbekiston Prezidentining —Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi farmoni 2005 yil 14 iyun.
10. Oliy ta'lim to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida — O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligi 406-sonli buyrug'i. 2010y. 29 oktabr.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida —gi 2012y 21-fevraldagi PF-4423 sonli qarori.
12. "2011-2016 yillarda oily ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini modernizasiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash dasturi — 2012y 20-mart .
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida — 2012y 24 iyuldagi PF-4456.
14. —2012-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013-yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori.

### Manbaa

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ҚОНУНИ ТАЪЛИМ ТЎҒРИСИДА

*(Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон,  
225-модда)*

### УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

#### **1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади**

Ушбу Қонун фуқароларга таълим, тарбия бериш, касб-хунар ўргатишнинг

ҳуқуқий асосларини белгилайди ҳамда ҳар кимнинг билим олишдан иборат конституциявий ҳуқуқини таъминлашга қаратилган.

## **2-модда. Таълим тўғрисидаги қонун ҳужжатлари**

Таълим тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ушбу Қонундан ҳамда бошқа қонун ҳужжатларидан иборат.

Қорақалпоғистон Республикасида таълим соҳасидаги муносабатлар Қорақалпоғистон Республикасининг қонун ҳужжатлари билан ҳам тартибга солинади.

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида таълим тўғрисидаги қонун ҳужжатларидагидан ўзгача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

## **3-модда. Таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий принциплари**

Таълим Ўзбекистон Республикаси ижтимоий тараққиёти соҳасида устувор деб эълон қилинади.

Таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий принциплари қуйидагилардан иборат:

таълим ва тарбиянинг инсонпарвар, демократик характерда эканлиги;

таълимнинг узлуксизлиги ва изчиллиги;

умумий ўрта, шунингдек ўрта махсус, касб-хунар таълимининг мажбурийлиги;

ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишини: академик лицейда ёки касб-хунар коллежида ўқишни танлашнинг ихтиёрийлиги;

таълим тизимининг дунёвий характерда эканлиги;

давлат таълим стандартлари доирасида таълим олишнинг ҳамма учун очиклиги;

таълим дастурларини танлашга ягона ва табақалаштирилган ёндашув;

билимли бўлишни ва истеъдодни рағбатлантириш;

таълим тизимида давлат ва жамоат бошқарувини уйғунлаштириш.

## **4-модда. Билим олиш ҳуқуқи**

Жинси, тили, ёши, ирқий, миллий мансублиги, эътиқоди, динга муносабати, ижтимоий келиб чиқиши, хизмат тури, ижтимоий мавқеи, турар жойи, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қанча вақт яшаётганлигидан қатъи назар, ҳар кимга билим олишда тенг ҳуқуқлар кафолатланади.

Билим олиш ҳуқуқи:

давлат ва нодавлат таълим муассасаларини ривожлантириш;

ишлаб чиқаришдан ажралган ва ажралмаган ҳолда таълим олишни ташкил этиш;

таълим ва кадрлар тайёрлаш давлат дастурлари асосида бепул ўқитиш, шунингдек таълим муассасаларида шартнома асосида тўлов эвазига касб-хунар ўргатиш;

барча турдаги таълим муассасаларининг битирувчилари кейинги босқичдаги ўқув юртларига киришда тенг ҳуқуқларга эга бўлиши;

оилада ёки ўзи мустақил равишда билим олган фуқароларга аккредитациядан ўтган таълим муассасаларида экстернат тартибида аттестациядан ўтиш ҳуқуқини бериш орқали таъминланади.

Бошқа давлатларнинг фуқаролари Ўзбекистон Республикасида халқаро

шартномаларга мувофиқ билим олиш ҳуқуқига эга.

Республикада истиқомат қилаётган фуқаролиги бўлмаган шахслар билим олишда Ўзбекистон Республикаси фуқаролари билан тенг ҳуқуқларга эга.

#### **5-модда. Педагогик фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқи**

Тегишли маълумоти, касб тайёргарлиги бор ва юксак ахлоқий фазилатларга эга бўлган шахслар педагогик фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқига эга.

Педагог ходимларни олий ўқув юртларига ишга қабул қилиш Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тасдиқлаган Низомга мувофиқ танлов асосида амалга оширилади.

Педагогик фаолият билан шуғулланиш суд ҳукмига асосан ман этилган шахсларнинг таълим муассасаларида бу фаолият билан шуғулланишига йўл қўйилмайди.

#### **6-модда. Таълим муассасасининг ҳуқуқий мақоми**

Таълим муассасасини аккредитациялаш ваколатли давлат органи томонидан аттестацияга асосан амалга оширилади.

Таълим муассасаси юридик шахс бўлиб, қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда барпо этилади. Нодавлат таълим муассасаси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси белгилаган тартибда давлат аккредитациясидан ўтган пайтдан бошлаб юридик шахс ҳуқуқлари ва таълим фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқига эга бўлади.

Таълим муассасаси қонун ҳужжатларига мувофиқ ишлаб чиқилган устав асосида фаолият кўрсатади.

Таълим муассасаси аттестация натижаларига биноан давлат аккредитациясидан маҳрум этилиши мумкин.

Таълим муассасалари ўқув-тарбия мажмуиларига ҳамда ўқув-илмий-ишлаб чиқариш бирлашмалари ва уюшмаларига бирлашишга ҳақли.

Таълим муассасалари уставда белгиланган вазифаларига мувофиқ пулли таълим хизматлари кўрсатиш, шунингдек тадбиркорлик фаолиятининг бошқа турлари билан шуғулланишга ҳақли.

#### **7-модда. Давлат таълим стандартлари**

Давлат таълим стандартлари умумий ўрта, ўрта махсус, касб-ҳунар ва олий таълим мазмунига ҳамда сифатига қўйиладиган талабларни белгилайди.

Давлат таълим стандартларини бажариш Ўзбекистон Республикасининг барча таълим муассасалари учун мажбурийдир.

#### **8-модда. Таълим бериш тили**

Таълим муассасаларида таълим бериш тилидан фойдаланиш тартиби Давлат тили ҳақидаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни билан тартибга солинади.

## **II. ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ВА ТУРЛАРИ**

#### **9-модда. Таълим тизими**

Ўзбекистон Республикасининг таълим тизими қуйидагиларни ўз ичига олади:

давлат стандартларига мувофиқ таълим дастурларини амалга оширувчи давлат ва нодавлат таълим муассасалари;

таълим тизимининг фаолият кўрсатиши ва ривожланишини таъминлаш учун зарур бўлган тадқиқот ишларини бажарувчи илмий-педагогик муассасалар;

таълим соҳасидаги давлат бошқарув органлари, шунингдек уларга қаршли

корхоналар, муассасалар ва ташкилотлар.

Ўзбекистон Республикасининг таълим тизими ягона ва узлуксиздир.

### **10-модда. Таълим турлари**

Ўзбекистон Республикасида таълим қуйидаги турларда амалга оширилади:

мактабгача таълим;

умумий ўрта таълим;

ўрта махсус, касб-хунар таълими;

олий таълим;

олий ўқув юртидан кейинги таълим;

кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш;

мактабдан ташқари таълим.

### **11-модда. Мактабгача таълим**

Мактабгача таълим бола шахсини соғлом ва етук, мактабда ўқишга тайёрланган тарзда шакллантириш мақсадини кўзлайди. Бу таълим олти-етти ёшгача оилада, болалар боғчасида ва мулк шаклидан қатъи назар, бошқа таълим муассасаларида олиб борилади.

### **12-модда. Умумий ўрта таълим**

Умумий ўрта таълим босқичлари қуйидагича:

бошланғич таълим (I—IV синфлар);

умумий ўрта таълим (I—IX синфлар).

Бошланғич таълим умумий ўрта таълим олиш учун зарур бўлган саводхонлик, билим ва кўникма асосларини шакллантиришга қаратилгандир. Мактабнинг биринчи синфига болалар олти-етти ёшидан қабул қилинади.

Умумий ўрта таълим билимларнинг зарур ҳажмини беради, мустақил фикрлаш, ташкилотчилик қобилияти ва амалий тажриба кўникмаларини ривожлантиради, дастлабки тарзда касбга йўналтиришга ва таълимнинг навбатдаги босқичини танлашга ёрдам беради.

Болаларнинг қобилияти, истеъдодини ривожлантириш учун ихтисослаштирилган мактаблар ташкил этилиши мумкин.

### **13-модда. Ўрта махсус, касб-хунар таълими**

Ўрта махсус, касб-хунар таълим олиш мақсадида ҳар ким умумий ўрта таълим асосида академик лицейда ёки касб-хунар коллежида ўқишнинг йўналишини ихтиёрий равишда танлаш ҳуқуқига эга.

Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари эгалланган касб-хунар бўйича ишлаш ҳуқуқини берадиган ҳамда бундай иш ёки таълимни навбатдаги босқичда давом эттириш учун асос бўладиган ўрта махсус, касб-хунар таълими беради.

Академик лицей ўқувчиларнинг интеллектуал қобилиятларини жадал ўстиришни, уларнинг чуқур, табақалаштирилган ва касб-хунарга йўналтирилган билим олишларини таъминлайдиган уч йиллик ўрта махсус ўқув юртидир.

Касб-хунар коллежи ўқувчиларнинг касб-хунарга мойиллиги, маҳорат ва малакасини чуқур ривожлантиришни, танланган касблар бўйича бир ёки бир неча ихтисос олишни таъминлайдиган уч йиллик ўрта касб-хунар ўқув юртидир.

### **14-модда. Олий таълим**

Олий таълим юқори малакали мутахассислар тайёрлашни таъминлади.

Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш олий ўқув юртларида (университетлар, академиялар, институтлар ва олий мактабнинг бошқа таълим муассасаларида) ўрта махсус касб-ҳунар таълими асосида амалга оширилади.

Олий таълим икки босқичга: давлат томонидан тасдиқланган намунадаги олий маълумот тўғрисидаги ҳужжатлар билан далилланувчи бакалаврият ва магистратурага эга.

Бакалаврият олий таълим йўналишларидан бири бўйича пухта билим берадиган, ўқиш муддати камида тўрт йил бўлган таянч олий таълимдир.

Магистратура аниқ мутахассислик бўйича бакалаврият негизида камида икки йил давом этадиган олий таълимдир.

Фуқаролар иккинчи ва ундан кейинги олий маълумотни шартнома асосида олишга ҳақлидирлар.

### **15-модда. Олий ўқув юртидан кейинги таълим**

Олий ўқув юртидан кейинги таълим жамиятнинг илмий ва илмий-педагогик кадрларга бўлган эҳтиёжларини таъминлашга қаратилгандир. Олий ўқув юртидан кейинги таълим олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот муассасаларида (аспирантура, адъюнктура, докторантура, мустақил тадқиқотчилик) олиниши мумкин.

Илмий ва илмий-педагогик кадрларни тайёрлаш, илмий даражалар ва унвонлар бериш тартиби қонун ҳужжатларида белгиланади.

### **16-модда. Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш**

Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш касб билимлари ва кўникмаларини чуқурлаштириш ҳамда янгилашни таъминлайди.

Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

### **17-модда. Мактабдан ташқари таълим**

Болалар ва ўсмирларнинг яқка тартибдаги эҳтиёжларини қондириш, уларнинг бўш вақти ва дам олишини ташкил этиш учун давлат органлари, жамоат бирлашмалари, шунингдек бошқа юридик ва жисмоний шахслар маданий-эстетик, илмий, техникавий, спорт ва бошқа йўналишларда мактабдан ташқари таълим муассасаларини ташкил этишлари мумкин.

Мактабдан ташқари таълим муассасаларига болалар, ўсмирлар ижодиёти саройлари, уйлари, клублари ва марказлари, болалар-ўсмирлар спорт мактаблари, санъат мактаблари, мусиқа мактаблари, студиялар, кутубхоналар, соғломлаштириш муассасалари ва бошқа муассасалар киради.

Мактабдан ташқари таълим муассасаларининг фаолият кўрсатиш тартиби қонун ҳужжатларида белгилаб қўйилади.

### **18-модда. Оиладаги таълим ва мустақил равишда таълим олиш**

Давлат оилада таълим олишга ва мустақил равишда таълим олишга кўмаклашади. Болаларни оилада ўқитиш ва мустақил равишда таълим олиш тегишли таълим муассасаларининг дастурлари бўйича амалга оширилади. Таълим олувчиларга ваколатли давлат муассасалари томонидан услубий, маслаҳат ва бошқа йўсинда ёрдам кўрсатилади.

### **19-модда. Таълим тўғрисидаги ҳужжатлар**

Аккредитация қилинган таълим муассасаларининг битирувчиларига давлат томонидан тасдиқланган намунадаги маълумот тўғрисидаги ҳужжат



(шаҳодатнома, диплом, сертификат, гувоҳнома) берилади. Давлат томонидан тасдиқланган намунадаги маълумот тўғрисидаги ҳужжат оилада таълим олган ёки мустақил равишда билим олган ва аккредитация қилинган таълим муассасаларининг тегишли таълим дастурлари бўйича экстерн тартибда имтиҳонлар топширган шахсларга ҳам берилади, давлат таълим муассасаларида ўқитилиши шарт бўлган ва рўйхати Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгилаб қўйиладиган мутахассисликлар бундан мустасно.

Олий маълумот тўғрисидаги дипломга ўзлаштирилган фанлар рўйхати, уларнинг ҳажмлари ва фанларга қўйилган баҳолар ёзилган варақа илова қилинади.

Диссертация ҳимоя қилган шахсларга белгиланган тартибда фан номзоди ёки фан доктори илмий даражаси берилади ва давлат томонидан тасдиқланган намунадаги диплом топширилади.

Давлат таълим стандартларига мос келган тақдирда Ўзбекистон Республикаси билан хорижий давлатларнинг ҳукуматлари ўртасидаги икки томонлама битимлар асосида ҳар икки томоннинг маълумот тўғрисидаги ҳужжатлари белгиланган тартибда ўзаро тан олиниши мумкин.

Тегишли босқичдаги таълимни тугалламаган шахсларга белгиланган намунадаги маълумотнома берилади.

Давлат тасдиқлаган намунадаги маълумот тўғрисидаги ҳужжат навбатдаги босқич таълим муассасаларида таълим олишни давом эттириш ёки тегишли ихтисослик бўйича ишлаш ҳуқуқини беради.

### **III. ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ ҚАТНАШЧИЛАРИНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ**

#### **20-модда. Таълим олувчиларни ижтимоий ҳимоя қилиш**

Таълим муассасасида таълим олувчилар қонун ҳужжатларига ва норматив ҳужжатларга мувофиқ имтиёзлар, стипендия ва ётоқхонада жой билан таъминланади.

#### **21-модда. Таълим муассасалари ходимларини ижтимоий ҳимоя қилиш**

Таълим муассасалари ходимларига иш вақтининг қисқартирилган муддати белгиланади, ҳақи тўланадиган йиллик узайтирилган таътиллар ҳамда қонун ҳужжатларида назарда тутилган имтиёзлар берилади.

Таълим муассасалари иш ҳақиға мўлжалланган мавжуд маблағлар доирасида мустақил равишда ставкалар, мансаб окладларига табақалаштирилган устама белгилашга ҳамда меҳнатга ҳақ тўлаш ва уни рағбатлантиришнинг турли шакллари қўллашга ҳақли.

#### **22-модда. Етим болаларни ва ота-оналарининг ёки бошқа қонуний вакилларининг васийлигисиз қолган болаларни ўқитиш**

Етим болаларни ва ота-оналарининг ёки бошқа қонуний вакилларининг васийлигисиз қолган болаларни ўқитиш ва уларни боқиш давлатнинг тўла таъминоти асосида қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

#### **23-модда. Жисмоний ёки руҳий ривожланишида нуқсони бўлган болалар ва ўсмирларни ўқитиш**

Жисмоний ёки руҳий ривожланишида нуқсони бўлган, шунингдек узоқ вақт даволанишга муҳтож бўлган болалар ва ўсмирларни ўқитиш, уларни тарбиялаш

ҳамда даволаш учун ихтисослаштирилган таълим муассасалари ташкил этилади. Болалар ва ўсмирларни ушбу таълим муассасаларига юбориш ва улардан чиқариш ота-оналарининг ёки бошқа қонуний вакилларининг розилиги билан психологик-тиббий-педагогик комиссиянинг ҳулосасига биноан амалга оширилади.

Ихтисослаштирилган таълим муассасаларининг ўқувчилари қисман ёки тўла давлат таъминотида бўлади.

#### **24-модда. Ижтимоий ёрдамга ва тикланишга муҳтож бўлган шахслар учун ўқув-тарбия муассасалари**

Алоҳида шароитларда тарбияланиш ва ўқишга муҳтож бўлган болалар ва ўспиринлар учун уларнинг билим олиши, касб тайёргарлиги ва ижтимоий тикланишини таъминлайдиган ихтисослаштирилган ўқув-тарбия муассасалари ташкил этилади.

Озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони ўташ муассасаларида сақланаётган шахсларнинг таълим олиши ва мустақил билим олиши учун қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда шароитлар яратилади.

### **IV. ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ БОШҚАРИШ**

#### **25-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг таълим соҳасидаги ваколатлари**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг таълим соҳасидаги ваколатларига қуйидагилар киради:

таълим соҳасида ягона давлат сиёсатини амалга ошириш;  
таълим соҳасидаги давлат бошқаруви органларига раҳбарлик қилиш;  
таълимни ривожлантириш дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;  
таълим муассасаларини ташкил этиш, қайта ташкил этиш ва тугатиш тартибини белгилаш;

таълим муассасаларини аккредитациядан, педагог, илмий кадрларни аттестациядан ўтказиш тартибини белгилаш;

бошқа давлатларнинг таълим муассасаларига Ўзбекистон Республикасининг ҳудудида таълим фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқини берувчи рухсатномалар бериш;

қонун ҳужжатларига мувофиқ хорижий давлатларнинг таълим тўғрисидаги ҳужжатларини тан олиш ва ҳужжатларнинг эквивалент эканлигини қайд этиш тартибини белгилаш;

давлат таълим стандартларини тасдиқлаш;

давлат томонидан тасдиқланган намунадаги маълумот тўғрисидаги ҳужжатларни тасдиқлаш ва уларни бериш тартибини белгилаш;

давлат грантлари миқдори ва таълим муассасаларига қабул қилиш тартибини белгилаш;

давлат олий таълим муассасасининг ректорларини тайинлаш;

таълим олувчиларни аккредитация қилинган бир таълим муассасасидан бошқасига ўтказиш тартибини белгилаш;

қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатлар.

#### **26-модда. Таълимни бошқариш бўйича махсус ваколат берилган давлат органларининг ҳуқуқ доираси**

Таълимни бошқариш бўйича махсус ваколат берилган давлат органларининг ҳуқуқ доирасига қуйидагилар киради:

таълим соҳасида ягона давлат сиёсатини рўёбга чиқариш;  
таълим муассасалари фаолиятини мувофиқлаштириш ва услуб масалаларида уларга раҳбарлик қилиш;  
давлат таълим стандартлари, мутахассисларнинг билим савияси ва касб тайёргарлигига бўлган талаблар бажарилишини таъминлаш;  
ўқитишнинг илғор шакллари ва янги педагогик технологияларни, таълимнинг техник ва ахборот воситаларини ўқув жараёнига жорий этиш;  
ўқув ва ўқув-услугият адабиётларини нашр этишни ташкил қилиш;  
таълим олувчиларнинг якуний давлат аттестацияси ва давлат таълим муассасаларида экстернат тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш;  
давлат олий таълим муассасасининг ректорини тайинлаш тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритиш;  
педагог ходимларни тайёрлашни, уларнинг малакасини оширишни ва қайта тайёрлашни ташкил этиш;  
қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатлар.

### **27-модда. Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг таълим соҳасидаги ваколатлари**

Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари:  
таълим муассасалари фаолиятининг минтақаларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш эҳтиёжларига мувофиқлигини таъминлайдилар;  
таълим муассасаларини ташкил этадилар, қайта ташкил этадилар ва тугатадилар (республика тасарруфида бўлган муассасалар бундан мустасно), уларнинг уставларини рўйхатга оладилар;  
ўз ҳудудларидаги таълим муассасаларини ваколат доирасида молиялаш миқдорларини ва имтиёзларни белгилайдилар;  
таълим сифати ва даражасига, шунингдек педагог ходимларнинг касб фаолиятига бўлган давлат талабларига риоя этилишини таъминлайдилар;  
қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга оширадилар.

### **28-модда. Таълим муассасасини бошқариш**

Таълим муассасасини унинг раҳбари бошқаради.  
Таълим муассасаларида қонун ҳужжатларига мувофиқ фаолият кўрсатадиган жамоат бошқаруви органлари ташкил этилиши мумкин.

### **29-модда. Таълим соҳасидаги давлат бошқаруви органлари билан нодавлат таълим муассасалари ўртасидаги ўзаро муносабатлар**

Таълим соҳасидаги давлат бошқаруви органлари нодавлат таълим муассасаларида таълим тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини назорат қилади.

Нодавлат таълим муассасалари таълим тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузган тақдирда, аккредитация қилган органлар уларнинг фаолиятини қонун ҳужжатларига мувофиқ тўхтатиб қўйишга ҳақли.

Нодавлат таълим муассасаларига қабул давлат ўқув юртлари учун белгиланган тартибда ва муддатларда амалга оширилади.

## **V. ЯКУНЛОВЧИ ХУЛОСАЛАР**

### **30-модда. Ота-оналар ёки қонуний вакилларнинг вазифалари**

Вояга етмаган болаларнинг ота-оналари ёки қонуний вакиллари боланинг қонуний ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қилишлари шарт ҳамда уларнинг

тарбияси, мактабгача, умумий ўрта, ўрта махсус, касб-хунар таълими олишлари учун жавобгардирлар.

### **31-модда. Таълимни молиялаш**

Давлат таълим муассасаларини молиялаш республика ва маҳаллий бюджетлар маблағлари, шунингдек бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан амалга оширилади.

### **32-модда. Таълимни ривожлантириш фондлари**

Таълимни ривожлантириш фондлари қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда юридик ва жисмоний шахсларнинг шу жумладан чет эллик юридик ва жисмоний шахсларнинг ихтиёрий бадаллари ҳисобидан ташкил этилиши мумкин.

### **33-модда. Халқаро ҳамкорлик**

Таълим муассасалари таълим муаммолари юзасидан халқаро ҳамкорликда иштирок этадилар, чет давлатларнинг тегишли ўқув юртлари билан бевосита алоқалар ўрнатиш, қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда улар билан қўшма ўқув юртлари ташкил этиш ҳуқуқига эга.

### **34-модда. Таълим тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик**

Таълим тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузишда айбдор бўлган шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўладилар.

**Ўзбекистон Республикаси  
Президенти И. КАРИМОВ**

Тошкент ш.,  
1997 йил 29 август,  
464-І-сон

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI  
MILLIY G'OYA TARG'IBOTI VA MA'NAVYI-MA'RIFIY ISHLAR  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH TO'G'RISIDA**

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada tegishli idora va tashkilotlar, jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi hamda uning joylardagi bo'limlari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilayotganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyshta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi ushbu sohadagi ishlarni, jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining faoliyati va tarkibiy tuzilishini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyligi va ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining navbatdagi yig'ilishida bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga raislik qilish, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar, shahar va tumanlar hokimlariga esa hududiy kengashlarga rahbarlik qilish vazifasi yuklatilsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari shtatlar jadvaliga qo'shimcha ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchisi shtati (jami 14 ta shtat birligi) kiritilsin.

3. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining tarkibiy tuzilishi **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi huzuridagi Milliy mafkura ilmiy targ'ibot markazi o'rniga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishida faoliyat olib boradigan, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etilsin.

Quyidagilar Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazining asosiy vazifasi etib belgilansin:

milliy g'oya va mafkura masalasi bilan bog'liq dolzarb masalalarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash, ularning aholi turlari qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish;

xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati va milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va hayotiy udumlariga, yoshlarimizning ongini zaharlab, ma'naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish bo'yicha ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqish;

fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning ongli yashashga, o'z fikriga ega bo'lishga, turli ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar tayyorlash. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy axborot texnologiyalari va mexanizmlarini, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratish;

o'z faoliyati doirasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini, tahliliy materiallarning xulosalarini ommaviy axborot vositalari, jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining nashr organlari — «Tafakkur» va «Jahon adabiyoti» jurnallari, «Ma'naviyat» nashriyoti orqali muntazam ravishda chop etib, keng jamoatchilikka yetkazish.

5. Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining amaliy targ'ibot yo'nalishida faoliyat olib boriladigan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markaziga aylantirilsin.

Quyidagilar Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazining asosiy vazifalari etib belgilansin:

Ma'naviyatning ma'no-mohiyati, milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari noyob va betakror namunalari, bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlarini muntazam ravishda olib borish;

aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'рни va ahamiyatini har tomonlama olib borishga yo'naltirilgan suhbat va uchrashuvlar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;

bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini atroflicha sharhlash va tushuntirish, yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va informatsion xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogohlikka da'vat etish, olimlar siyosatini va mutaxassislar, ijodkorlar, ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot tizimini yo'lga qo'yish;

ota-ona, oila, mahalla, tarixiy xotira, milliy g'urur, komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni yosh avlod qalbi va ongiga ta'sirchan usul va uslublar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari

bilan uzviy holda rivojlantirish, targ'ibot ishlarini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil etish;

yurtdoshlarimizni muqaddas islom dini va falsafasi, aziz-avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug' qadamjolariga boshqa diniy konfesiylariga nisbatan hurmat-ehtirom va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish.

6. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi 15 kun muddatda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi hamda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazining dastur va nizomlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

7. Toshkent shahar hokimligi Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi hamda «Tafakkur» jurnali tahririyatini Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uyga joylashtirilsin.

8. O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini xizmat telefonlari, jumladan, hukumat telefoni, internet, boshqa aloqa va axborot vositalari bilan belgilangan tartibda ta'minlansin.

9. Moliya vazirligi:

Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi faoliyatini moliyalashtirish, uni zarur idoraviy jihozlar, kompyuter texnikasi va boshqa asbob-uskunalar bilan ta'minlash, markazning ilmiy-tadqiqot natijalari, dolzarb ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi kitob, risola, dastur, qo'llanma va boshqa matbaa mahsulotlarini nashr etish bilan bog'liq xarajatlar uchun 2007 yildan boshlab davlat byudjetidan mablag' ajratilishini ko'zda tutsin;

Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi uchun bitta yengil avtomobilga limit ajratsin.

10. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi Adliya vazirligiga hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda, bir oy muddatda amaldagi qonun hujjatlariga qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.Mirziyoev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi**

**Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2006 yil 25 avgust,  
PQ-451



**O'rinboyev Xoshimjon Bo'natovich - 1958 yilda Namangan viloyati Uychi tumanida tug'ilgan.**

Namangan Muhandislik pedagogika instituti  
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti.



**Nurmatov Akramjon Rahmanaliyevich 07.06. 1987yil da Namangan viloyati Chortoq tumanida tug'ilgan.**